

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

SUG‘URTA FAKULTETI

“SUG‘URTA ISHI” KAFEDRASI

G‘AFFOROV SAN‘AT ERKIN O‘G‘LI

**“Sug‘urta boxori infratuzilmasi sub‘ektlari va ular faoliyatini
rivojlantirish muammolari”**

5341300 – “Sug‘urta ishi” ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish
uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

“Sug‘urta ishi” kafedrasi mudiri

_____ i.f.n., dotsent I.K.Ochilov
“ ” _____ 2014

Ilmiy rahbar _____ k.o‘q. N.Mavrulova

“ ” _____ 2014

TOSHKENT-2014

MUNDARIJA

Kirish	3
I bob Sug‘urta bozorini modernizatsiya qilishning zarurligi va ahamiyati	6
1.1 Sug‘urta bozorining mohiyati va vujudga kelish shart-sharoitlari.....	6
1.2 Sug‘urta bozori infratuzilmasi sub’ektlari va ularga umumiy tavsif.....	10
II bob O‘zbekiston sug‘urta bozori infratuzilmasi sub’ektlari faoliyati rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari tahlili va rivojlanish tendensiyalari	17
2.1 O‘zbekiston sug‘urta bozori infratuzilmasi va unda professional ishtirokchilarning tutgan o‘rni.....	17
2.2 Milliy sug‘urta bozori infratuzilmasi sub’ektlari faoliyatining rivojlanish tendensiyalari.....	25
Sug‘urta bozori infratuzilmasi sub’ektlari va ular faoliyatini rivojlantirish muammolari	41
3.1 Mamlakat sug‘urta bozori ifratuzilmasini tashkil etish bo‘yicha xorijiy davlatlar tajribasi.....	41
3.2 O‘zbekiston mintaqalarida sug‘urta bozori ifratuzilmasini rivojlantirish muammolari va ularni hal etish yo‘llari.....	45
Xulosa	52
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	57

Kirish

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi. Mamlakatimizda jamiyatni modernizatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar o‘zining ijobiy natijasini bermoqda. Prezident I.Karimov ta’biri bilan aytganda, “O‘tgan yil yakunlarini sarhisob qilar ekanmiz, avvalombor shuni ta’kidlashimiz kerakki, global jahon iqtisodiyotida hali-beri saqlanib qolayotgan jiddiy muammolarga qaramasdan, 2013 yilda O‘zbekiston o‘z iqtisodiyotini barqaror sur’atlar bilan rivojlantirishni davom ettirdi, aholi turmush darajasini izchil yuksaltirishni ta’minladi, dunyo bozoridagi o‘z pozitsiyasini mustahkamladi. Bu davrda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8 foizga o‘ydi, sanoat ishlab chiqarish hajmi 8.8 foizga, qishloq xo‘jaligi 6.8 foizga, chakana savdo aylanmasi hajmi 14.8 foizga oshdi¹.

Bu o‘z navbatida, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan bir qatorda moliya sektorining, xususan, sug‘urta sohasining barqaror sur’atlarda rivojlanishiga zamin yaratadi. Zero, iqtisodchilar va tahlilchilarning ta’kidlashlaricha, sug‘urta – iqtisodiyot rivojlanishini aks ettiruvchi indikator vazifasini bajaradi. So‘nggi yillarda respublikamizda sug‘urta xizmatlari bozorini taraqqiy ettirish, tarmoqda bozor mexanizmlarini keng ko‘lamda joriy etish yuzasidan e’tirof etishga arzigulik ishlar amalga oshirildi. Shuningdek, mamlakatimizni iqtisodiy rivojlantirish, uzoq muddatli strategik maqsadlarni amalga oshirishda O‘zbekistonning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish va mavqeini mustahkamlashga yo‘naltirilgan tarkibiy o‘zgarishlar, zamonaviy yuksak texnologiyalarga asoslangan eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni ta’minlaydigan ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biri ekanligiga alohida e’tibor qaratildi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida kuzatilayotgan rivojlanish ko‘rsatkichlarini samarali moliyaviy siyosat natijasi ekanligini qayd etish zarur.

¹ Karimov I.A. 2014 yil yuqori o‘shish sur’atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi.//<http://www.lex.uz/news/144>

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlashda va aholini ko'ngilsiz hodisalardan himoya qilishda sug'urtaning o'ziga xos muhim o'rni bor. Sug'urta ishlab chiqarishning zarur unsurlaridan biri sifatida bozor iqtisodiyotiga o'tishning muhim iqtisodiy dastaklaridan hisoblanadi. Sug'urta bozori mulkchilikning deyarli barcha shakllarini tabiiy ofatlardan saqlashda, xilma-xil falokatlar natijasida odamlarga yetkazilgan zararlarni qoplashda moddiy jihatdan yordam beradi. Aynan shu sug'urta bozorini, jumladan unda samarali ishtirok etib kelayotgan professional ishtirokchilar faoliyatini keng ko'lamda tashkil etish va uni rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish masalalarini o'rganish bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligini anglatadi.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti. O'zbekiston sug'urta bozori infratuzilmasi sub'ektlarining faoliyati, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, sug'urta operatsiyalari mazkur ishning ob'ektini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti. Mamlakat sug'urta bozori infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirish bilan bog'liq nazariy qarashlar, mavjud huquqiy baza va konsepsiyalar ushbu ishning predmetini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida sug'urta bozori infratuzilmasining amaldagi holatini o'rganish, tahlil qilish asosida uni rivojlanishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalar** belgilab olindi:

- sug'urta xizmatlari bozorining mohiyatini ochib berish va uning vujudga kelish shart-sharoitlarini o'rganish;
- sug'urta xizmatlari bozori sub'ektlarining joriy holatiga baho berish;
- mamlakat mintaqalarida sug'urta bozori infratuzilmasi rivojlanishining umumiy tendensiyalarini aniqlash va tahlil qilish;
- sug'urta bozori infratuzilmasining rivojlanishiga majburiy sug'urtaning ta'sirini o'rganish va tahlil qilish;

- sugʻurta bozori infratuzilmasini tashkil etish boʻyicha chet davlatlar tajribasini oʻrganish hamda ularni Oʻzbekiston amaliyotiga joriy etish yuzasidan tegishli takliflar ishlab chiqish;
- Oʻzbekistonda sugʻurta bozori infratuzilmasini rivojlantirish yoʻlida mavjud boʻlgan muammolarni aniqlash va ularni hal etish boʻyicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishning nazariy-amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ish natijalaridan mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yuzasidan qabul qilinayotgan qonunchilik va meʼyoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda, sugʻurta bozorini rivojlantirish konsepsiyalari va dasturlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Ishning tarkibiy tuzilishi_ kirish, 3 ta bob, bitiruv malakaviy ishning asosiy mazmunini yorituvchi 6ta savol, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati kabi tarkibiy qismlardan iborat. BMI da jadvallar, diagrammalardan foydalanilgan.

I bob. Sug'urta bozorini modernizatsiya qilishning zarurligi va ahamiyati

1.1. Sug'urta bozorining mohiyati va vujudga kelish shart-sharoitlari

Sug'urtaning insoniyat hayotidagi va iqtisodiyotning uzluksiz rivojlanishini ta'minlashdagi ahamiyati beqiyos. Buni e'tiborga olib, mamlakatimizda bozor infratuzilmasining ushbu bo'g'inini rivojlantirishga katta e'tibor berilyapti.

Birgina 2002 yilda sug'urta sohasini rivojlantirish yuzasidan davlat miqyosida bir qator chora-tadbirlarning belgilanganligi fikrimizning tasdig'idir. Xususan, 2002 yilning 31 yanvarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sug'urta bozorini yanada erkinlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonining e'lon qilinishi sug'urta tizimini taraqqiy ettirish yo'lida muhim qadam bo'ldi.

O'zbekistonning mustaqil rivojlanishi davrida sug'urtalashning huquqiy bazasiga va sug'urta sohasida bozor infratuzilmasini rivojlantirishga poydevor qo'yildi, misol uchun sug'urtalashda tomonlarning o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi va respublikada sug'urta faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishning tamoyillarini belgilovchi xalqaro andozalarga mos keluvchi hamda talablarga javob beruvchi O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni 2002 yil 5 aprelda qabul qilindi. Aytish kerakki, yangi qonun yurtimizda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy sohalarda o'tkazilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, mamlakatimizda olib borilayotgan erkinlashtirishni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Bu qonunning qabul qilinishi sug'urta munosabatlarida ishtirok etuvchi tomonlarning huquq va manfaatlarini himoyalashga muhim hissa bo'lib qo'shildi. Sug'urta ko'p tarmoqli faoliyat bo'lib, uni tashkil etishda yuzlab sug'urta tashkilotlari ishtirok etadilar va ular minglab sug'urtalanuvchi huquqiy va jismoniy tashkilotlarga xizmat ko'rsatadilar, faqat davlat hissadorlik sug'urtasi yo'li bilan sug'urtaning 35 xili mavjud, ularning har birini ob'ekti, sub'ekti, tariflari bor. Sug'urta ishini boshqarish, uning o'xshash xillarini guruhlantirish, tarmoqlarga, bo'limlarga

ajratishni talab qiladi. Bu asosda sug'urta ishini boshqarish va tashkil qilish asoslashadi.

Guruhlash lotincha "klassifikatsiya" so'zidan olingan bo'lib, mavjud umumiy yaxlit tushunchani ayrim xillarga, bo'limlarga ajratish demakdir. Agar biz sug'urta xillarini ma'lum tartib-qoida asosida birini ikkinchisidan ajratsak, boshqarish murakkablashadi, unda chalkashliklar sodir bo'ladi. Sug'urtani guruhlash (klassifikatsiyasi) sug'urtaning ko'p sonli xillarini hududlar, tarmoqlar, tarmoq bo'limlariga, ularning ayrim xususiyatlarini e'tiborga olib ajratishdir. Sug'urta tashkilotlarining o'z zimmalariga olingan javobgarliklari bir necha milliardni tashkil qiladi. Buning uchun har bir sug'urtalanuvchi yirik korxonalar, hissdorlik jamiyatlari, tadbirkorlar bilan shartnoma tuzish, falokat yuz berganda ularga o'z vaqtida yordamga kelish lozim. Buning uchun sug'urta ishi, uning xillari, qoidalarini guruhlantirish qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligi bizga ravshanlashadi.

Sug'urta faoliyati sug'urtaning har bir xilining xususiyatlarini ko'zda tutib, quyidagi yo'nalishlarga guruhlashtiradi.

- * Hududlar bo'yicha: (mamlakatni ichki doirasi va tashqi sug'urta munosabatlarini e'tiborga olib)
- * Davlat va xususiy sug'urta tashkilotlari
- * Tarmoqlar bo'yicha
- * Xavf-xatar xillari bo'yicha
- * Majburiy va ixtiyoriy sug'urta

Hududlar bo'yicha sug'urtalashda mamlakatning ichki doirasida va tashqi iqtisodiy munosabatlarda, shu hisobda xorijiy mamlakatlar bilan sug'urta sohasida hamkorlik qilish ham ko'zda tutiladi, bunda faqat eksport-import muammolarigina emas, balki investitsiyalar, diplomatiya xodimlarini ham sug'urtalash ko'zda tutiladi. Bunday sug'urtaning davlat va xususiy tashkilotlari tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Shu munosabat bilan dastlab sug'urta tashkilotlarini quyidagicha guruhlash mumkin:

* faqat xorijiy mamlakatlar investorlari va tashqi iqtisodiy munosabatlarga xizmat qiluvchi sug'urta tashkilotlari

* qo'shma sug'urta tashkilotlari, kompaniyalar,

* faqat mamlakat doirasida huquqiy va jismoniy shaxslarga xizmat qiluvchi tashkilotlar

* davlat hissadorlik sug'urta tashkilotlari.

Sug'urta bozorining paydo bo'lishi va rivojlanishini o'rganish uchun, uning dunyoda ilk paydo bo'lishini o'rganish va rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilib, aniq bir xulosaga kelish mumkin. Sug'urta bozorining dastlabki kurtaklari sug'urta jamiyatlarini shakllantirish davriga borib taqaladi. Dastlabki sug'urta jamiyati London shahrida 1791 yili tashkil etilgan. Bu jamiyat yong'indan sug'urtalash bilan shug'ullanar edi.

Bozor munosabatlari shakllanib, sug'urta sohasida amalga oshirilgan islohotlar natijasida sug'urta munosabatlarining mazmuni butunlay o'zgardi. Tashkil etilgan mustaqil sug'urta kompaniyalari ishtirokida to'liq bozor munosabatlari talablariga javob beradigan sug'urta bozori shakllana boshladi. Hozirgi kunga kelib bu bozorning mamlakat iqtisodiyotidagi salmog'i anchagina ortdi. Hozirda respublikada turli mulkchilik shaklidagi 32 ta sug'urta kompaniyasi faoliyat ko'rsatmoqda.

Kompaniyalar sonining ortib borishi sug'urtalanuvchilarga tanlash imkonini beradi va o'zaro raqobat muhitini yaratadi, hamda iqtisodiyotning o'sishiga salmoqli ta'sir ko'rsatadi.

Bozor munosabatlarining rivojlanishi taraqqiyot yo'lidagi to'siqlarni yo'q qilib, iqtisodiy hamkorlikning kengayishiga olib keladi va milliy sug'urta bozorlarining jahon sug'urta bozoriga ulanishiga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi kunda jahon amaliyotida sug'urtada ikki tendensiya amal qilmoqda: sug'urtalovchilarning ixtisoslashuvi va universallasuvi, ya'ni ma'lum sug'urta kompaniyalari sug'urtaning deyarli barcha turlari bo'yicha xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yib o'z faoliyatlarini kengaytirsalar, boshqa bir kompaniyalar sug'urtaning ma'lum bir turlari bo'yicha ixtisoslashib, ushbu

xizmat turini mukammal o'zlashtirib olmoqdalar. Bu yo'nalishlarning birinchisi bevosita mehnatning ijtimoiy taqsimlanishining kuchayishi bilan bog'liqdir: ushbu jarayon sug'urta ishida ham ob'ektiv zarurat tug'dirmoqda.

Sug'urtalovchilar faoliyatining universallashtirish tendensiyalari sug'urta bozori yetarli darajada rivojlanmagan, sug'urta xizmatlariga talabgorlar soni u qadar ko'p bo'lmagan mamlakat, hudud yoki mintaqalarda yuz bersa, ixtisoslashuv jarayonlari sug'urta bozori rivojlangan, sug'urta xizmatlariga talabgorlar soni ko'p bo'lgan mamlakat, hudud yoki mintaqalarga xosdir. Chunki sug'urta bozori endigina rivojlanayotgan, sug'urtalashga talabgorlar soni u darajada ko'p bo'lmagan mamlakatlardagi sug'urta kompaniyalari bir yoki ikki sug'urta turiga ixtisoslashish bilan etarli darajada mijozlarga ega bo'la olmaydilar. Shuning uchun ham ular mumkin qadar ko'proq turdagi sug'urta xizmatlarini amalga oshirib, ko'prok mijozlarga ega bo'lishga harakat qiladilar. Sug'urta bozori rivojlangan mamlakatlarda esa sug'urtalanishga talabgorlar soni yetarli darajada bo'lib, ammo ularning talablari ham yuqori darajadadir, bunday talabni qondirish uchun ma'lum bir sug'urta turiga ixtisoslashish, mukammal bilimlarni egallash va katta tajribaga ega bo'lish talab etiladi.

Sug'urta bozori amal qilishining asosiy sharti, sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabning mavjud bo'lishi va sug'urtalovchilar bu talabni qondirish imkoniyatiga ega bo'lishlari bilan xarakterlanadi. Demak, sug'urta bozorining faoliyat ko'rsatishi qiymat qonuni hamda talab va taklif qonuni bilan bog'liq holda amalga oshadi.

Sug'urta bozori sub'ektlarining mustaqil bo'lishini, ularning o'zaro teng imkoniyatlar bilan raqobat olib borishi, asosiy munosabat sug'urta xizmatlarining oldi-sotdisi bo'yicha, ya'ni sug'urta mahsulotlarini sotib olish gorizontal hamda vertikal rivojlanish aloqalarini olib borish bilan ta'riflanib kelinadi.

1.2. Sug'urta bozori infratuzilmasi sub'ektlari va ularga umumiy tavsif

Bugungi kunda milliy sug'urta bozori infratuzilmasining asosiy sub'ektlari quyidagilardir:

Sug'urta agenti - sug'urtalovchining nomidan va topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasining tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyat yurituvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

Sug'urta brokeri - sug'urta qildiruvchining nomidan va topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasi tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs.

Adjaster - sug'urta hodisasi ro'y berishi munosabati bilan sug'urtalanuvchi tomonidan bildirilgan e'tirozni tartibga solishda sug'urta kompaniyasining manfaatlarini himoya etuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs. U sug'urtalanuvchi bilan unga to'lanadigan sug'urta qoplamasi miqdorini kelishishga harakat qiladi. Adjaster sug'urta hodisasining ro'y berish sabablarini o'rganadi va tahlil etadi. Ushbu tahlil natijalari bo'yicha sug'urta kompaniyasiga ekspert xulosasini tuzadi hamda avariya komissari funktsiyasini bajaradi. Adjaster vazifasini sug'urta kompaniyasining tarkibiy bo'limi yoki ixtisoslashgan tashkilot amalga oshirishi mumkin.

Aktuariy - lotin tilidan tarjima qilganda hisobchi degan ma'noni bildiradi. Aktuar hisob-kitoblar nazariyasini o'zlashtirib olgan sug'urta matematikasi sohasidagi mutaxassis. U sug'urta tariflarini hisoblash va metodologiyasini ishlab chiqish, uzoq muddatli sug'urta turlari bo'yicha sug'urta zahiralarini shakllantirish bilan bog'liq hisob-kitoblarni amalga oshirish bilan shug'ullanadi.

Sug'urta tashkilotlari turli tashkiliy-huquqiy shakllarda tuzilishi mumkin. "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 11-moddasida sug'urtalovchilar qonunlarda nazarda tutilgan barcha tashkiliy-huquqiy shakllarda tashkil etilishi nazarda tutilgan. Sug'urtalovchilar qaysi mulkchilik shaklida tuzilmasin, ularning ustav kapitaliga bo'lgan talab bir xil darajada o'rnatilgan. Ma'lumki, sug'urtalovchilar ustav fondining eng kam miqdori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Sug'urtalovchi ustav fondining kamida to'qson foizi muassislarning (ishtirokchilarning) pul mablag'laridan shakllantiriladi. Sug'urtalovchining ustav fondini shakllantirish uchun kreditga, garovga olingan mablag'lardan va boshqa jalb qilingan mablag'lardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Sug'urtalovchining ustav fondi litsenziya olinadigan paytga qadar sug'urtalovchining muassislari tomonidan to'langan bo'lishi kerak. Sug'urta tashkilotlarining faoliyati boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyatidan keskin farq qiladi. Shu sababli ularning faoliyati litsenziyalanadi. Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda maxsus vakolatli davlat organi beradigan litsenziyalar asosida amalga oshiriladi.

Litsenziya sug'urtalovchiga hayotni sug'urta qilish sohasida yoxud umumiy sug'urta sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun beriladi. Hayotni sug'urta qilish sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirayotgan sug'urtalovchi umumiy sug'urta sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirishga haqli emas, umumiy sug'urta sohasining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan ayrim turlari (klasslari) bundan mustasnodir. Umumiy sug'urta sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirayotgan sug'urtalovchi hayotni sug'urta qilish sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirishga haqli emas. Litsenziyada sug'urtalovchi amalga oshirishni nazarda tutayotgan sug'urta turlari (klasslari) ko'rsatiladi.

2014 yil 1 aprel holatiga mamlakatimizda 32 ta sug'urta tashkiloti faoliyat ko'rsatadi. Ularning 2 tasi hayot sug'urtasida, 30 tasi umumiy sug'urta tarmog'ida sug'urta xizmatlarini ko'rsatadi¹.

Davlat ro'yxatiga olingan va sug'urta faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega sug'urta tashkilotlarining aksariyati aksionerlik sug'urta tashkiloti maqomiga ega. Ularning ayrimlari ochiq, ayrimlari esa yopiq aksionerlik jamiyati shaklida tashkil etilgan.

¹ O'zbekiston Respublikasining Moliya Vazirligi ma'lumotlari


Sugʻurta xizmatlari bozorida faol ishtirok etuvchi subʻektlardan yana biri – sugʻurta agentlari boʻlib hisoblanadi. Oʻzbekiston Respublikasining “Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 9-moddasi “Sugʻurta agenti” deb ataladi hamda unda sugʻurta agentining vazifalari aniq belgilab berilgan¹.

Sugʻurtalovchining nomidan va topshirigʻiga binoan sugʻurta shartnomasining tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish boʻyicha faoliyat yurituvchi yuridik yoki jismoniy shaxs sugʻurta agenti hisoblanadi. Sugʻurtalovchining boshqaruv organlari rahbarlari sugʻurta agenti boʻla olmaydilar. Sugʻurta agenti oʻz faoliyatini sugʻurtalovchilar bilan tuzilgan topshiriq shartnomalari (agent bitimlari) asosida amalga oshiradi. Quyidagi diagrammada soʻngi bey yil davomida Oʻzbekiston Respublikasida faoliyat koʻrsatayotgan sugʻurta agentlari sonining oʻsish dinamikasi keltirilgan (2-diagrammaga qarang).

Diagramma maʼlumotlarining tahlili 2012 yilda 2011 yilga nisbatan sugʻurta agentlari soni 266 nafarga yoki 3,4 foizga kamayganligini koʻrsatmoqda. Buni shu bilan izohlash mumkinki, soʻnggi yillarda sugʻurta bozorida faoliyat yurituvchi sugʻurta agentlari oʻrtasida raqobat muhiti ancha kuchaydi.

1-diagramma

Oʻzbekiston sugʻurta bozorlarida faoliyat koʻrsatayotgan sugʻurta agentlari sonining oʻsish dinamikasi²



¹ Oʻzbekiston Respublikasining “Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida”gi Qonuni. -“Xalq soʻzi” gazetasi, 2002 yil 28 may.

² Oʻzbekiston Respublikasining Moliya Vazirligi maʼlumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Sug'urta agenti faqat o'zi bilan topshiriq shartnomasi (agent bitimi) tuzgan sug'urtalovchi reestriga kiritilganidan keyin o'z faoliyatini amalga oshirishi mumkin. Quyidagilarga:

-sug'urta agentining tegishli turdagi sug'urtani amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lmagan sug'urtalovchilar nomidan sug'urta shartnomalari tuzishiga;

-agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi hududida sug'urta bo'yicha sug'urta agentining O'zbekiston Respublikasi hududida belgilangan tartibda ro'yxatga olinmagan chet el sug'urta tashkilotlari nomidan sug'urta shartnomalari tuzish bilan bog'liq bo'lgan vositachilik faoliyatiga yo'l qo'yilmaydi. Sug'urta agenti — jismoniy shaxs o'z nomiga, to'lovlar naqd pullar bilan amalga oshirilganida esa yaqin qarindoshlari (otasi, onasi, xotini, eri, o'g'li, qizi, opa-singillari va aka-ukalari) nomiga sug'urta shartnomalari bo'yicha hujjatlar yozishga, shuningdek o'z foydasiga sug'urta shartnomalari tuzishga va bunda mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta agenti sifatida ish ko'rishga haqli emas.

Sug'urta agenti quyidagi huquqlarga ega:

-sug'urtalovchi tomonidan berilgan vakolatlar doirasida sug'urtaning har qanday turi, shu jumladan majburiy sug'urta turlari bo'yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirish;

-sug'urtaga qabul qilinayotgan sug'urta tavakkalchiligini baholashda, sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta to'lovini to'lashda va sug'urta qildiruvchining sug'urta mukofotini to'liq hajmda hamda sug'urta shartnomasida belgilangan muddatlarda to'lashida zarur ko'mak ko'rsatish;

-sug'urtalovchidan litsenziyaning mavjudligi, ustav fondi miqdorlari, sug'urta zahiralari hamda qabul qilingan majburiyatlar to'g'risida, shuningdek sug'urtalovchining to'lovga qobiliyatligi va moliyaviy barqarorligiga doir boshqa ko'rsatkichlar to'g'risida ma'lumotlar olish;

-sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) tuzish uchun zarur hujjatlarni rasmiylashtirish;

-sug'urta qildiruvchidan qabul qilib olinayotgan tavakkalchiliklar to'g'risida sug'urtalovchiga to'liqroq axborot berish maqsadida barcha uchun ochiq bo'lgan manbalardan tavakkalchilik va sug'urta qildiruvchi to'g'risida sug'urta qildiruvchining shaxsiy hayotiga aralashmagan holda ma'lumotlar to'plash.

Sug'urta agenti qonun hujjatlariga va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Sug'urta agenti:

-sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;

-sug'urta shartnomasi tuzishda va sug'urta to'voni to'lashda hujjatlarni o'z vaqtida rasmiylashtirishga ko'maklashishi;

-sug'urta tariflari, sug'urtalovchilar tomonidan taklif etilayotgan sug'urta shartlari haqida, litsenziyaning mavjudligi, ustav fondi miqdorlari, sug'urta zahiralari hamda qabul qilingan majburiyatlar to'g'risida, shuningdek sug'urtalovchining to'lovga qobiliyatligi va moliyaviy barqarorligiga doir boshqa ko'rsatkichlar haqida axborotga ega bo'lishi;

-sug'urta shartnomasini rasmiylashtirishda sug'urta qildiruvchi to'g'risida zarur axborotga ega bo'lishi, unga sug'urta tavakkalchiligini pasaytirish va sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimolini kamaytirishga qaratilgan aniq tadbirlarni amalga oshirishni taklif etishi;

-sug'urta qildiruvchilarning so'roviga ko'ra ularga sug'urtaning amaldagi shartlari to'g'risida axborot berishi;

-sug'urta shartnomalarini belgilangan tartibda tuzishi va yangi muddatga o'z vaqtida qayta rasmiylashtirishi;

-tuzilgan sug'urta shartnomalari va olingan sug'urta mukofotlari summalari hisobini belgilangan shaklda yuritishi;

-sug'urta hujjatlarining saqlanishini ta'minlashi;

-mijozning tijorat sirini yoki boshqa sirini tashkil etgan ma'lumotlarning maxfiylikini saqlashi;

-sug'urta shartnomasining amal qilish muddati mobaynida tavakkalchilik shart-sharoitlarining jiddiy ravishda o'zgarishiga taalluqli axborotni sug'urtalovchi o'z vaqtida olishini, shuningdek sug'urta e'tirozlari yuzaga kelganda hamda ularni tartibga solish jarayonida sug'urtalovchi va sug'urta qildiruvchi o'rtasida axborotning o'z vaqtida almashinishini ta'minlashi;

-tegishli bitim mavjud bo'lgan taqdirda, sug'urtalovchining topshirig'iga ko'ra va uning hisobidan sug'urta to'lovlari to'lanishini tashkil etishi shart.

Mamlakat moliya bozorida sug'urta tizimi muhim ahamiyatga ega. Respublikamiz Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek, "Bugungi kunda rivojlanmagan sug'urta tizimisiz xo'jalik sub'ektlari samarali ish yuritishi, investitsion faoliyat bilan shug'ullanishi, kredit olishi mushkul"¹. Sug'urta xizmatlarining raqobat bozori yanada takomillashtirilib, tarmoqlar rivojlantirilmoqda. Shu orqali aholining keng qatlami sug'urta xizmatlari bilan ta'minlanmoqda. Muhimi aholi ehtiyoj sezadigan sug'urta turlarini aniqlash, ular bo'yicha yengilliklar yaratish, ularni talabini o'rganish, takliflar yaratish va ishonchini qozongan holda sug'urtaga jalb qilish.

Sug'urta tizimini bosqichma-bosqich isloh qilish sug'urta bozorida turli mulkchilik shaklidagi tashkilotlarning paydo bo'lishiga xizmat qilmoqda. Bu borada qabul qilingan huquqiy hujjatlar sug'urta tizimining jamiyatdagi o'rnini yuksaltirish, jahon andozalariga mos, sifatli xizmat ko'rsatish hamda sug'urta bozori infratuzilmasini takomillashtirish imkoniyatini bermoqda.

O'zbekiston sug'urta bozorining rivojlanishini tavsiflovchi xususiyatlar:

1. Sug'urta turlari sonining keskin ortganligi. Dastlabki yillar ular soni juda cheklangan bo'lgan.
2. Majburiy sug'urta turlarining bosqichma-bosqich joriy etilishi.

¹ Karimov I.A. "Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish – eng muhim vazifamiz", Xalq so'zi 15.02.2000 y. №32.

3. Sohalarga ixtisoslashgan sug`urta tashkilotlarining barpo etilishi. Mazkur sug`urta tashkilotlari bora-bora universal sug`urta tashkilotiga aylanmoqda.

4. Sug`urta bozorining ochiqligi va integratsiya uchun tayyorligi.

5. Hududiy sug`urtaning rivojlanishi.

6. Eng asosiysi respublika sug`urta bozori xalq xo`jaligi ehtiyojlarini to`la qondirish imkoniyatiga ega. Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha yetakchi tarmoqlari zarur sug`urta mahsulotlari bilan ta`minlangan. Bunday tarmoqlar: industrial soha, Kichik biznes va tadbirkorlik sohasi, AKT sohasi hamda moliya-bank tizimi¹.

¹ “O`zbekistonda sug`urta bozorini rivojlantirish istiqbollari” Konferensiya materiallari 45-bet, Toshkent 2012, 28 fevral

II bob. O‘zbekiston sug‘urta bozori infratuzilmasi sub’ektlari faoliyati rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari tahlili va rivojlanish tendensiyalari

2.1. O‘zbekiston sug‘urta bozori infratuzilmasi va unda professional ishtirokchilarning tutgan o‘rni

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlar sifat jihatidan yangilanishi jarayonida sug‘urta faoliyati ham rivojlanib, ravnaq topib bormoqda. Milliy sug‘urta bozori so‘nggi yillarda jadal sur‘atlar bilan rivojlanib bormoqdaki, buning isbotini sug‘urta kompaniyalarining reyting ko‘rsatkichlaridan ham kuzatish mumkin. Bugungi kunda mamlakatimizda sug‘urta xizmatlari bozorini xalqaro talablar darajasiga olib chiqish, jismoniy va yuridik shaxslarning sug‘urta bozorida faol ishtirok etishini rag‘batlantirish maqsadida sug‘urta kompaniyalari uchun har tomonlama shart-sharoitlar yaratilmoqda. Bu esa, bozordagi sog‘lom raqobat muhitining ham shakllanishiga olib kelmoqda.

Bugungi kunga kelib, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan sug‘urta kompaniyalari o‘rtasida sog‘lom raqobat mavjud, deb bema’alol ayta olamiz, buni ularning soni va ko‘rsatayotgan sug‘urtaviy xizmatlari sifatidan ko‘rish mumkin. Hozirda 32 ta kompaniya mijozlarga turli yo‘nalishdagi sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatib, mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushining oshishini ta’minlab bermoqda. Ulardan bittasi davlat unitar sug‘urta kompaniyasi, 3 ta sho‘ba korxonasi, 12 tasi aksiyadorlik jamiyati shaklidagi kompaniya, 16 tasi esa mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklida tashkil etilgan. Ushbu kompaniyalarning hayot sug‘urta tarmog‘i hamda umumiy sug‘urta tarmog‘ida faoliyat yuritishiga qarab turlarga ajratadigan bo‘lsak, hayot sug‘urta tarmog‘ida ikkita kompaniya faoliyat yuritadi, qolgan 30 ta kompaniya umumiy sug‘urta tarmog‘ida ishlaydi. Demak, milliy bozordagi 91% sug‘urta kompaniya umumiy sug‘urta tarmog‘iga to‘g‘ri keladi.

Sug‘urta kompaniyalari o‘z faoliyatini boshlashi uchun avvalom bor Moliya Vazirligidan tegishli litsenziyaga ega bo‘lishlari kerak bo‘ladi. Litsenziya olish uchun taqdim etiladigan hujjatlar tarkibida sug‘urta kompaniyasi o‘z faoliyat nizomini taqdim etadi va ushbu nizomda faoliyat

yuritadigan sugʻurta tarmogʻi hamda uning amalga oshiradigan klasslarini alohida koʻrsatib oʻtishi talab etiladi. Sugʻurta kompaniyalari qaysi klasslar boʻyicha litsenziyaga ega boʻlsa, faqat shu klasslar doirasidagina faoliyat yuritishi shart hisoblanadi, sugʻurta klasslarini tanlash kompaniyaning Nizom jamgʻarmasiga bogʻliq holda amalga oshiriladi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 31 maydagi “Sugʻurtachilarning moliyaviy barqarorligini yanada oshirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida” PQ-1544-sonli Qaroriga asosan, sugʻurta faoliyatini yanada takomillashtirish, sugʻurtalovchilarning kapitallashuvi va moliyaviy barqarorligini oshirish, ularning hududiy tarmoqlarini kengaytirish va sugʻurta kompaniyalarining investitsion jarayonlardagi ishtirokini ragʻbatlantirish, shuningdek, sugʻurta xizmatlari isteʼmolchilarining huquqlarini samarali himoya qilishni taʼminlash maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va Iqtisodiyot vazirligining taklifiga binoan, 2012 yil 1 iyuldan boshlab sugʻurtalovchilar uchun ustav kapitalining eng kam miqdorlarini oshirish belgilandi. Unga koʻra:

1. Umumiy sugʻurta tarmoqlari uchun-1.125 ming evro
2. Hayot sugʻurta tarmogʻi uchun-1.5 mln evro
3. Majburiy sugʻurta turlari uchun-2.250 mln evro
4. Qayta sugʻurtalovchilar uchun- 5 mln evro ekvivalentidagi summa shakllantirilishi kerak¹.

2010 yilning 26 noyabrida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting koʻrsatkichlariga erishishning ustuvor yoʻnalishlari toʻgʻrisida”gi PQ-1438-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda sugʻurta kompaniyalari 2015 yilga qadar quyidagi miqdorlarda eng kam ustav kapitalini shakllantirishlari belgilab qoʻyildi:

1. Umumiy sugʻurta tarmoqlari uchun-1,5 ming evro
2. Hayot sugʻurta tarmogʻi uchun-2 mln evro

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21 maydagi “Sugʻurta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida” gi PQ-872-sonli Qarori

3. Majburiy sug'urta turlari uchun-3 mln evro


4. Qayta sug'urtalovchilar uchun-6 mln evro¹.

Demak, 1,5 mln evro ekvivalentidagi summani shakllantirgan sug'urta kompaniyalari umumiy sug'urta tarmog'idagi sug'urta xizmatlarini ko'rsatishlari mumkin hisoblanadi.

Milliy sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida 2010 yilgacha bo'lgan davrda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2007 yil 21 mayda qabul qilingan PQ-640-son Qarori alohida o'rin egallaydi. Buni shu bilan izohlash mumkinki, ushbu qarorga binoan "O'zbekiston Respublikasida 2007—2010 yillarda xizmatlar ko'rsatish sohasini rivojlantirishning yangilangan asosiy parametrlari" tasdiqlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 17 apreldagi pq-325-son qarorining 7-bandida ko'zda tutilgan soliq imtiyozlari sug'urta bozorining professional ishtirokchilari xizmatlariga ham tatbiq etildi. Ya'ni sug'urta bozorining ishtirokchilari – sug'urta agentlari, aktuariylar, adjasterlar va syurveyerlar 2010 yilga qadar foyda va yagona soliq to'lashdan ozod etildi.

2-diagramma

2008-2012 yillarda mintaqaviy sug'urta xizmatlari bozori sub'ektlarining o'zgarish dinamikasi²



¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PQ-1438-sonli Qarori

² Diagramma O'zbekiston Respublikasining Moliya Vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi..

Diagrama ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2012 yilda har bir sug'urta kompaniyasiga o'rtacha 31 tadan mintaqaviy bo'linma to'g'ri kelgan. 2008 yilda bu ko'rsatkich 22 tani tashkil etgan. Ya'ni, tahlil etilayotgan yillarda har bir sug'urta kompaniyasiga to'g'ri keladigan o'rtacha mintaqaviy bo'linmalar sonida ijobiy o'zgarish yuz bergan.

Agar, mamlakatimizning barcha mintaqalarida mavjud 32 ta sug'urta kompaniyasidan 9 tasi o'z filiallariga ega bo'lsa, har bir sug'urta kompaniyasiga to'g'ri keladigan mintaqaviy bo'linmalar soni ancha yuqori bo'lishi oydinlashadi.

1-jadval

O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urta mukofotlari hajmi bo'yicha yetakchi sug'urta kompaniyalarining ulushi¹

(2013 yil 3-chorak holatiga)

Kompaniya	Belgisi
O'zagrosug'urta	22.06%
O'zbekinvest	13.57%
Asia Inshurans	12.11%
Kafolat	11.18%
Alskom	6.29%
Kapital Sug'urta	6.28%
Transinsurance Plus	5.57%
Temir Yo'l - Sug'urta	4.36%
O'zbekinvest Hayot	3.48%
Xalq Sug'urta	2.57%
Sug'urta O'z	2.15%
Gross Insurance	1.70%
Ishonch	1.68%
Agro Invest Sug'urta	1.63%

¹ www.UzReport.com. "SAIPRO" kompaniyasining "TOP-25" loyihasi materiallaridan olindi

Euroasia Insurance	1.13%
Kafil Sug'urta	0.90%
Silk Road Insurance	0.80%
Asko-Vostok	0.75%
Hamkor Sug'urta	0.74%
DD General Insurance	0.64%
Madad	0.40%

O‘zbekistonda keyingi yillarda “O‘zagrosug‘urta” kompaniyasi barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha yetakchilik qilib kelmoqda, bu holat uning universallashtirish yo‘lida, sug‘urta munosabatlarida oddiylik va tezkorlik kabi xususiyatlar mavjudligi bilan tavsiflanadi. Umuman olganda, davlat ishtirokidagi sug‘urta kompaniyalari har doim birinchi beshtalikdan o‘rin egallab kelgan, buning asosiy sababi bo‘lib, potensial mijozlarda aynan davlat ishtirokidagi kompaniyalarga qiziqish kuzatilayotgani, sug‘urta da‘volarining qondirilish darajasi xususi sug‘urta tashkilotlariga qaraganda yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ammo shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, bugungi kunda endigina tashkil etilgan kompaniyalar ham qisqa muddatlarda o‘z asl mijozlarini jalb qila olmoqdalar, bu esa ularni faoliyat turlarini kengaytirish, mijozlar bilan ishlash tizimini yaxshilash va sug‘urta bozori professional ishtirokchilari bilan hamkorlik ishlarini samarali yo‘lga qo‘yishga undaydi.

2-jadval

O‘zbekiston sug‘urta bozorida sug‘urta qoplamalari hajmi bo‘yicha yetakchii sug‘urta kompaniyalarining ulushi¹

(2013 yil 3-chorak holatiga)

Kompaniya	Belgisi
O'zbekinvest	49.61%

¹ www.UzReport.com. “SAIPRO” kompaniyasining “TOP-25” loyihasi materiallaridan olindi

O'zagrosug'urta	9.91%
Kafolat	9.52%
O'zbekinvest Hayot	9.38%
Transinsurance Plus	4.91%
Kapital Sug'urta	4.76%
Asia Inshurans	3.07%
Agro Invest Sug'urta	2.06%
Alskom	1.72%
Temir Yo'l – Sug'urta	1.57%
Xalq Sug'urta	1.14%
Ishonch	0.69%
Sug'urta O'z	0.43%
DD General Insurance	0.37%
Hamkor Sug'urta	0.31%
Silk Road Insurance	0.20%
Gross Insurance	0.14%
Euroasia Insurance	0.12%
Kafil Sug'urta	0.08%
Madad	0.01%
Asko-Vostok	0.003%

Sug'urta bozorida mijozlar tomonidan ko'rilgan zararlarning o'rnini qoplash bo'yicha yetakchi sug'urta kompaniyalari orasida hayot sug'urta tarmog'ida faoliyat yurituvchi "O'zbekinvest Hayot" sug'urta kompaniyasini uchratish albatta quvonarli holat. Ushbu kompaniya o'zining ko'p sonli mijozlarga ega bo'lishiga qaramay sug'urta bozori ko'rsatkichlari bo'yicha birinchiliklardan o'rin egallashi kuzatilmas edi. Demak, ishonch bilan ayta olamizki, keyingi yillarda ushbu kompaniya sug'urta portfelini shakllantirish va shunga mos ravishda sug'urta munosabatlarini o'rnatishda yaxshi natijalarga

erishmoqda, jumladan sug'urtalanuvchilarning sug'urta da'volarini ko'rib chiqish va uni ijobiy tomonga hal etish masalalariga ham jiddiy yondashilmoqda.

Mamlakatda sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirishda respublikamizning yirik sug'urta kompaniyalari tarkibiga kiruvchi "O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi alohida o'ringa ega. 2013 yil 1 aprel holatiga mazkur kompaniyaning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida filiallari mavjud bo'lib, ular tarkibiga 106 ta sug'urta bo'linmalari kiradi. Shuningdek, yuridik va jismoniy shaxs maqomiga ega 1043 sug'urta agentlari mamlakatimizning barcha mintaqalarida aholiga, tashkilot va korxonalariga yuqori sifatli sug'urta xizmatlarini ko'rsatish imkonini beradi¹.

3-jadval

O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urta shartnomalari soni bo'yicha yetakchii sug'urta kompaniyalarining ulushi²

(2013 yil 3-chorak holatiga)

Kompaniya	Belgisi
O'zagrosug'urta	63.18%
Kafolat	10.25%
Alskom	5.55%
Temir Yo'l - Sug'urta	4.76%
Gross Insurance	3.79%
Kapital Sug'urta	3.57%
Asia Inshurans	2.68%
O'zbekinvest	2.53%
Ishonch	1.28%
Euroasia Insurance	0.57%
Xalq Sug'urta	0.55%

¹ "O'zbekinvest" EIMSKning www.uzbekinvest.uz saytidan olingan

² www.UzReport.com. "SAIPRO" kompaniyasining "TOP-25" loyihasi materiallaridan olindi

Transinsurance Plus	0.31%
Madad	0.26%
Agro Invest Sug'urta	0.20%
O'zbekinvest Hayot	0.16%
DD General Insurance	0.11%
Hamkor Sug'urta	0.11%
Kafil Sug'urta	0.08%
Silk Road Insurance	0.05%
Asko-Vostok	0.02%
Sug'urta O'z	0.004%

Milliy sug'urta bozorida sug'urta shartnomalarining tuzilishi bo'yicha yetakchi sug'urta kompaniyalar tarkibida boshqa sug'urta kompaniyalarini uchratishimiz shundan dalolat beradiki, sug'urta shartnomalarining tuzilish darajasi nafaqat uning doimiy mijozlari soniga, balki shartnoma shartlarining oddiy va mijozlar uchun qulay shartlarda tuzilganligiga bog'liq bo'ladi. Shundan xulosa qilib aytamizki, qulaylik va ishonchlilik tamoyillari har doim potensial mijozlarni jalb qilib kelgan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, respublika mintaqalarida sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirish, yuridik va jismoniy shaxslarning sug'urta xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish borasida hali o'zlashtirilmagan katta imkoniyatlar mavjud. Bu holat sug'urtalovchilarning mintaqaviy sug'urta xizmatlari bozorida ishtirok etish bo'yicha strategiyasini qayta ko'rib chiqishga majbur qilmoqda. Bunga misol tariqasida "Kafolat" davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasini keltirish mumkin.

Kompaniya mamlakatimizda rivojlanayotgan sug'urta bozorini shakllantirishda faol ishtirok etib, so'nggi yillarda sug'urta faoliyati ko'lamini muntazam ravishda kengaytirib bormoqda. Xususan, kompaniya eng yirik mintaqaviy bo'linmalar tarmog'iga ega bo'lishiga qaramay aholi va tashkilotlarga yaqinlashish maqsadida mintaqaviy tarmoqni kengaytirishga

alohida e'tibor bilan qaramoqda. Ushbu masalaning yanada rivoj topishiga sug'urta bozorini isloh qilishga doir qator me'yoriy hujjatlarning, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 17 apreldagi «2006-2010 yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 325-sonli Qarori hamda 2008 yilning 22 aprel kuni qabul qilingan «Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining amaliyotga tadbiiq etilishi muhim ahamiyat kasb etdi.

Bugungi kunda mamlakat hududlari sug'urta bozori rivojlanishi uchun g'oyat katta imkoniyatlar eshigini ochadi. Shundan kelib chiqib ta'kidlash mumkinki, bozorda o'z mavqei va nufuzini mustahkamlamoqchi bo'lgan har qanday sug'urta kompaniyasi sug'urta xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha mamlakat mintaqalarida o'z bo'linmalarini tashkil etishga va ularning faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga katta e'tibor qaratishlari zarur.

2.2. Milliy sug'urta bozori infratuzilmasi sub'ektlari faoliyatining rivojlanish tendensiyalari

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlar sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Bu jarayonda sug'urta faoliyati ham rivojlanib, ravnaq topmoqda. Sug'urta instituti bozor infratuzilmasining tarkibiy qismi sifatida uning rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, sug'urta faoliyatida risklar transferi ham o'z navbatida, bozor infratuzilmasining rivojlanganlik darajasiga bog'liqdir.

Shu o'rinda, «infratuzilma» tushunchasi iqtisodiy ilmiy lug'atlarda turlicha: masalan, «asosiy ishlab chiqarish sohalari va aholiga xizmat ko'rsatuvchi iqtisodiy tarmoqlar yig'indisi» yoki «ma'lum tarmoqqa xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqaruvchi va noishlab chiqaruvchi tarmoqlar majmuasi» kabi ma'nolarda qo'llanilishini qayd etish mumkin. Xususan, sug'urta bozori infratuzilmasining mazmun-mohiyatini ochib berishda, iqtisodiyot sub'ektlarining

samarali faoliyat yuritishi uchun kafolatli shart-sharoit yaratuvchi faoliyat turlari majmuasi nazarda tutiladi. Ma'lumki, sug'urta mahsuloti sotilishining o'ziga xos jihatlari mavjud va bu jarayon:

- sug'urta riski haqida axborot to'plash va uni aniqlashtirish;
- sug'urta shartnomasini imzolash va uning amal qilishini ta'minlash kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Sug'urta faoliyatida risklar transferining mazkur bosqichlari o'ziga xos bilimni talab etadi. Ayni vaqtda ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga ko'ra, ma'lum qisqa davr oralig'ida talab etilayotgan mutaxassis kompaniyaning shtatlar birligiga kiritilishi iqtisodiy jihatdan samarasiz hisoblanishi ham mumkin. Shuning uchun kompaniya o'z faoliyatida, odatda boshqa soha mutaxassislari xizmatidan foydalanadi. Demak, ta'kidlash mumkinki, sug'urta bozori infratuzilmasi uning professional ishtirokchilari va boshqa soha mutaxassislari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar sifatida sug'urta faoliyatida risklar transferining samaradorligini ta'minlovchi omil sanaladi.

Sug'urta bozori infratuzilmasining o'ziga xosligidan kelib chiqib, shuni qayd etish mumkinki, uning tarkibiga sug'urta vositachilari, sug'urtachilar uyushmasi, avariya komissari, syurveyer, aktuariy, sug'urta auditori, maxsus ixtisoslashgan maslahatchilar hamda baholovchi firmalar kabi sub'ektlar kiradi. Shu o'rinda, London sug'urta bozori infratuzilmasi tarkibiga sug'urta anderrayterlari ham kiritilganligini qayd etish mumkin.

O'zbekiston sug'urta bozorida professional ishtirokchilar o'ziga xos o'ringa egadir. Masalan, aktuariy sug'urta xizmatlari narxini aniqlashda qatnashuvchi sub'ekt sanaladi. Bunda, u katta sonlar va ehtimollik qonunlari, shuningdek, statistik ma'lumotlardan foydalanadi. Rivojlangan mamlakatlarda sug'urta tashkilotlari aktuariy faoliyatisiz sug'urta xizmatlariga iqtisodiy asoslangan narxlarning belgilanishini ta'minlay olmaydi. Aktuariy sug'urta faoliyatini strategik rejalashtirish, sug'urta sohalari, klass(tur)lari, shuningdek, kompaniya bo'yicha sug'urta portfeli tarkibi va sifatining tahlili kabi jarayonlarda ishtirok

etadi. Ayrim davlatlarda sug'urta tashkilotining hisoboti uning vakolatli shaxslaridan tashqari aktuariy tomonidan ham tasdiqlanishi talab etiladi.

Sug'urta bozori infratuzilmasining yana bir asosiy sub'ekti bu avariya komissaridir. U sug'urta hodisasi yuz berganidan so'ng shartnoma shartlariga muvofiq amalga oshiriladigan faoliyatda ishtirok etadi. Ta'kidlash mumkinki, avariya komissari sug'urta tashkiloti bilan tuzgan shartnomasi asosida faoliyat yuritadi. U sug'urta tashkilotining vakili sifatida sug'urta hodisasi oqibatida zarar ko'rgan mulkni ko'rikdan o'tkazadi, uning ko'lami va sabablarini aniqlaydi hamda avariya sertifikatini tuzadi. Ba'zi mamlakatlarda sug'urta tashkiloti tomonidan avariya komissariga ma'lum limit doirasida yo'qolgan mulkni qidirish xarajatlarini amalga oshirish huquqi ham berilishi mumkin.

Mamlakatimizda aksariyat hollarda sug'urta tashkilotining o'zi yoki hodisaning turiga qarab tegishli tashkilot (yo'l patrul xizmati, baholovchi tashkilot va boshqa)lar tomonidan avariya komissarining vazifasi bajarilmoqda. Bu holat, albatta sug'urta xizmatining sifatiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

Keyingi yillarda O'zbekiston sug'urta bozori jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Mazkur jarayonda avariya komissari faoliyatining yo'lga qo'yilishi va rivojlantirilishi turli sub'ektlarning sug'urtaga bo'lgan ishonchlari ortishiga omil bo'ladi.

Sug'urta bozori infratuzilmasida avariya komissari bilan «yonma-yon» syurveyer va dispasherlar kabi sub'ektlar ham faoliyat ko'rsatadi. Syurveyer - bu maxsus ekspert bo'lib, u sug'urta ob'ektlarini sug'urta tashkiloti so'roviga asosan ko'rikdan o'tkazuvchi sub'ekt sanaladi. U sug'urtalanuvchi tomonidan ob'ektni ko'rikdan o'tkazish uchun jalb etilishi ham mumkin. Ta'kidlash lozimki, uning avariya komissari bilan o'zaro o'xshash hamda o'ziga xos farqli tomonlari ham mavjud. Bundan tashqari syurveyerning ixtisoslashganlik darajasi odatda avariya komissariga nisbatan yuqori sanaladi. Shuning uchun avariya komissari ham ba'zan syurveyer xizmatidan foydalanadi.

Sug'urta bozorida avariya komissari va syurveyer bilan birgalikda dispasher ham faoliyat ko'rsatishi mumkin. Mazkur faoliyat dengiz sug'urtasi

bilan bog'liqligi sababli asosan dengiz bo'yi davlatlarida rivojlangan. Mol-mulk yoki boshqa ob'ektlar dengiz orqali manzilga yetkazilish jarayonida yuz berishi ehtimol bo'lgan, turli risklardan sug'urtalanadi. Ma'lumki, dengiz transportida bir necha sub'ektlarning mol-mulki yuklangan hamda ular sug'urtalangan bo'lishi mumkin. Dengizda sug'urta xodisasi yuz berishi oqibatida mulklarning zararlanishi umumiy avariya deb nomlanadi.

Umumiy avariya holatida har bir mulk egasi qancha zarar ko'rganligini aniqlash lozim bo'ladi. Aynan shunday faoliyatni dispasher amalga oshiradi, hamda u ko'rilgan zararni hisoblash va uni xolisona taqsimlash bilan shug'ullanuvchi mutaxassis hisoblanadi. Zararning hisobi bo'yicha tuzilgan hujjat dispasha deb nomlanadi.

Sug'urta bozori infratuzilmasida sug'urta vositachilari professional ishtirokchilar sifatida o'ziga xos o'rinni egallaydi. Ular sug'urtachi va sug'urtalanuvchi o'rtasida vositachilik faoliyatini amalga oshirish borasida muhim sub'ektlar hisoblanadi. Sug'urta vositachilarining tarkibiga sug'urta agentlari, sug'urta va qayta sug'urta brokerlari kabi sub'ektlar kiradi. Xususan, sug'urta agenti bu sug'urta tashkilotining nomidan yoki uning topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasining tuzilishi va uning ijro etilishini tashkil etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxsdir. Sug'urta brokeri esa sug'urtalanuvchining nomidan yoki uning topshirig'iga asosan shartnomani tuzish va uning amal qilishi bilan bog'liq faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs hisoblanadi. Sug'urta vositachilari sug'urta mahsulotini sotish bo'yicha maxsus tizimga ega bo'lib, sug'urta bozorining o'ziga xos infrastrukturasi tashkil etadi.

Sug'urtachilar uyushmasi unga a'zo bo'lgan sub'ektlarning manfaatlariga xizmat qilish maqsadida (masalan, 1985 yildan boshlab faoliyat ko'rsatayotgan Britaniya sug'urtachilar assotsiatsiyasi singari) tashkil etilishi mumkin bo'lgan sug'urta bozori infratuzilmasining muhim tarkibiy qismi sanaladi. Mazkur uyushma(assotsiatsiya)ning vazifasi keng ko'lamli bo'lib, u sug'urta sohasiga oid bilimlarni ommalashtirish, maxsus bukletlar, statistik ma'lumotlarni nashr etish kabi yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatadi.

Sug'urta bozori infratuzilmasida auditorlik tashkilotlari ham o'ziga xos o'ringa ega. O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 26 mayda qabul qilingan «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq sug'urta tashkilotlari ham auditorlik tekshiruvidan o'tishlari majburiy qilib belgilab qo'yilgan. Auditorlik tekshiruvi sug'urta tashkilotining so'roviga asosan amalga oshiriladi. Uning natijasiga ko'ra, auditor sug'urta tashkilotining moliyaviy ahvoli yuzasidan o'z xulosasini beradi. Mazkur xulosada sug'urta tashkilotining moliyaviy holati aks ettiriladi. Sug'urta tashkiloti auditor taqdim etgan xulosadan kelib chiqib, o'zining moliyaviy holatini yaxshilash strategiyasini ishlab chiqadi hamda uni amalga oshiradi.

Yuqoridagilardan tashqari maxsus ixtisoslashgan maslahatchilar ham sug'urta bozori infratuzilmasining sub'ekti sifatida faoliyat yuritishlari mumkin. Mazkur sub'ektlar jumlasiga ixtisoslashgan va keng qamrovli maslahat byurolari, advokatlik hamda baholovchi firmalarni kiritish mumkin. Shu o'rinda ta'kidlash mumkinki, mamlakatimizda maslahatchilik xizmatining rivojlanganlik darajasi hozirda yuqori emas va mazkur mutaxassislar sug'urta faoliyatida deyarli ishtirok etishmayapti.

Xalqaro tajribani o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, bozor infratuzilmasi sug'urta bozori infratuzilmasini shakllantirish bilan bir butunlikda kechadigan jarayondir. O'zbekistonda sug'urta bozori infratuzilmasining shakllantirilishi birmuncha o'zgacha tarzda kechmoqda.

Sug'urta bozori infratuzilmasida alohida mustaqil faoliyat ko'rsatishi lozim bo'lgan sug'urta vositachilari, auditorlari, sug'urta ob'ektlarini baholovchi(ekspert)lar hamda boshqa sub'ektlar, xorijiy amaliyotdagidan farqli ravishda, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan sug'urta tashkilotlarining o'ziga birlashtirilgan. Garchi, sug'urta bozori infratuzilmasining rivojlanishi sust kechayotgan bo'lsada, sug'urta tashkilotlarining o'z infratuzilmasini rivojlantirishga bo'lgan harakatlari ko'zga tashlanmoqda. Xususan, bu borada «O'zbekinvest» EIMSKning yetakchi bo'layotganini, uning qoshida «Sug'urta olami» nomli sug'urta biznesini o'qitish va «Innovatsiya va sug'urta

xizmatlarini rivojlantirish» markazlari, «O‘zbekinvest Eksiminform» marketing hamda «O‘zbekinvest Assistans» servis agentliklari «O‘zbekinvest Sarmoyalari» investitsion kompaniya shuningdek, boshqa sho‘ba korxonalar samarali faoliyat ko‘rsatayotganligini qayd etish mumkin.

Sug‘urta bozori infratuzilasini shakllantirish va uning sub’ektlari faoliyatining me‘yoriy-xuquqiy bazasini takomillashtirish O‘zbekistonda sug‘urta bozori taraqqiyotini yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqadi. Xususan, mamlakatimizda sug‘urtachilar uyushmasini tashkil etish, aktuariy, syurveyer kabi sub’ektlarning faoliyatini yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta’kidlash joizki, bu jarayon sug‘urta bozori infratuzilmasi sub’ektlarining alohida ixtisoslashuvini hamda ularning faoliyatini o‘zaro muvofiqlashtirishni taqozo etadi.

4-jadval

O‘zbekiston sug‘urta bozorida faoliyat yuritayotgan sug‘urta kompaniyalari ro‘yxati (2013 yil 9 oylik yakunlari bo‘yicha)¹

№	Kompaniya nomlari	Huquqiy tashkiliy shakl
1	ALSKOM	Ochiq aksiyadorlik jamiyati
2	ARK Sug'urta	Mas'uliyati cheklangan jamiyat
3	Agro Invest Sug'urta	Ochiq aksiyadorlik jamiyati
4	Alfa Invest	Yopiq aksiyadorlik jamiyati
5	Alfa Life	Mas'uliyati cheklangan jamiyat
6	Asia Inshurans	Mas'uliyati cheklangan jamiyat
7	Asko-Vostok	Mas'uliyati cheklangan jamiyat
8	Chartis Uzbekistan	Yopiq aksiyadorlik jamiyati
9	DD General Insurance	Mas'uliyati cheklangan jamiyat
10	Euroasia Insurance	Mas'uliyati cheklangan jamiyat

¹ Jadval www.UzReport.com sayti ma'lumotlari asosida tayyorlangan


11	Garant Insurance Group	Sho'ba korxonasi
12	Global Insurance Gr.	Mas'uliyati cheklangan jamiyat
13	Gross Insurance	Mas'uliyati cheklangan jamiyat
14	Hamkor Sug'urta	Mas'uliyati cheklangan jamiyat
15	IShONCh	Mas'uliyati cheklangan jamiyat
16	Ingo-Uzbekistan	Yopiq aksiyadorlik jamiyati
17	Kafil-Sug'urta	Mas'uliyati cheklangan jamiyat
18	Kafolat	Davlat-aksiyadorlik kompaniyasi
19	Kapital Sug'urta	Ochiq aksiyadorlik jamiyati
20	Madad	Ochiq aksiyadorlik jamiyati
21	Mega Invest Insurance	Mas'uliyati cheklangan jamiyat
22	O'zagrosug'urta	Davlat-aksiyadorlik kompaniyasi
23	O'zbekinvest	Davlat unitar korxonasi
24	O'zbekinvest Hayot	Sho'ba korxonasi
25	SUG'URTA O'Z	Mas'uliyati cheklangan jamiyat
26	Silk Road Insurance	Mas'uliyati cheklangan jamiyat
27	Temir Yo'l - Sug'urta	Mas'uliyati cheklangan jamiyat
28	Transinsuranse Plus	Mas'uliyati cheklangan jamiyat
29	UVT-Inshurans	Sho'ba korxonasi
30	Unipolis	Mas'uliyati cheklangan jamiyat
31	Universal Sug'urta	Yopiq aksiyadorlik jamiyati
32	XALQ SUG'URTA	Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 32 ta sug'urtalovchi sug'urta bozori infratuzilmasining eng asosiy qatnashchilari

hisoblanadi, sababi sug'urta operatsiyalari aynan ular taklif etadigan sug'urta turlari bo'yicha va ular taklif etadigan shartlarda olib boriladi. Qolgan sub'ektlar esa sug'urta kompaniyalari faoliyatini to'ldiruvchilar hisoblanib, sug'urta operatsiyalarining tezligi, sifati va samarali bo'lishiga javobgardirlar. Demak, sug'urta bozorini rivojlantirish uchun faqat kompaniyalar faoliyatiga emas, balki barcha infratuzilma sub'ektlari faoliyatini samarali tashkil etish yo'llarini ishlab chiqish zarur. Quyida biz milliy sug'urta bozorining asosiy qatnashchilari bo'lmish sug'urta kompaniyalarining eng asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha tahlilini o'rganamiz va bu bizga sohaga oid muhim jihatlarni ilg'ash, u bo'yicha xulosalar chiqarish va birmuncha rivojlanishdan ortda qolayotgan sohalarni aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, sug'urta mukofotlarining tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi orqali aholi talab va ehtiyojlarining sugurta xizmatlariga nisbatan darajasiga baho berish mumkin.

3-diagramma¹

O'zbekiston sug'urta bozori bo'yicha sug'urta mukofotlari va qoplamalari hajmi dinamikasi, mlrd.so'm (TOP-25 loyihasi bo'yicha)




Har qanday sug'urta turi bo'yicha rivojlanish tendentsiyalari tahlilida sug'urta bozoridagi umumiy ko'rsatkichlar hajmini e'tiborga olish muhim

¹ Diagramma www.UzReport.com sayti ma'lumotlari asosida tuzilgan.

hisoblanadi, sababi tahlil etilayotgan sug'urta turining umumiy sug'urta bozoridagi hissasi uning aholi tomonidan qanchalik iste'mol qilinayotgani va qay tarzda amalga oshirilayotganini aniqlash imkonini beradi. Mazkur diagramma respublikada 2011-2013 yillar davomida samarali faoliyat yuritib keng miqyosdagi sug'urtaviy xizmatlarni ko'rsatgan kuchli 25 talikka kiruvchi sug'urta kompaniyalarining birgalikdagi to'plagan sug'urta mukofotlari va amalgam oshirgan qoplamalarini o'zida aks ettirgan bo'lib, raqamlar shundan dalolat beradiki, biz tahlil etayotgan ko'rsatkichlarda yillar kesimida o'sish sur'atlari kuzatilmoqda. 2011 yilda sug'urta mukofotlari 165.5 mlrd. so'mni tashkil etgani holda 14.2 % zararlilik indeksi kuzatilgan, ya'ni mukofotlarning shuncha qismi sug'urta hodisalari natijasida mijozlar tomonidan ko'rilgan zaralarning o'rnini qoplash uchun sarflangan. 2012 yilda xuddi shu ko'rsatkich bo'yicha sug'urta mukofotlari 232.0 mlrd. so'mni tashkil etgan va zararlilik indeksi 17.2 %ga teng bo'lgani ma'lum. 2013 yilga kelib esa, jami sug'urta mukofotlari 283.7 mlrd. so'mni tashkil etgan va uning 21.3%i sug'urtalanuvchilarning ixtiyoriga qaytarilgan. Endi sug'urta mukofotlari hajmining yillar bo'yicha o'sish sur'atini hisoblaydigan bo'lsak, 2012 yilda 2011 yilga nisbatan 128%ga o'sgan bo'lsa, 2013 yilda 2012 yilga nisbatan 118%ga o'sish kuzatilgan. Sug'urta qoplamalari hajmining o'zgarishini kuzatadigan bo'lsak, 2012 yilda 2011 yilga nisbatan 142 %ga, 2013 yilga kelib esa bu ko'rsatkich 166 %ga o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, sug'urta mukofotlarining zararlilik indeksida ham yil sayin o'sish kuzatilganligini inobatga olib aytish mumkinki, sug'urta kompaniyalari tomonidan sug'urta da'volarini ko'rib chiqish va uni hal etish, sug'urta qoplamalarini to'lab berish amaliyotida ijobiy tomonga o'zgarish kuzatilgan. Sug'urta qoplamari hajmining ortishi nafaqat da'volarni ko'rib chiqish tizimining samarali ishlashiga, balki sug'urta hodisalari deb tan olinuvchi holatlar ro'yxatining kengligiga va sug'urta shartnomalari shartlarining sodda va tartiblashtirilganligiga bog'liq bo'ladi.

2013 yil yakunlariga ko‘ra sug‘urta turlari bo‘yicha sug‘urta mukofotlari tuzilishi, foizda (TOP-25 loyihasi bo‘yicha)



Respublika miqyosida to‘plangan jami sug‘urta mukofotlarining tuzilishini tahlil qilish bizga qaysi sohalarda o‘shish yoki kamayish tendensiyalari kuzatilganligini ko‘rsatadi va xuddi shu yo‘nalishlarni rivojlantirish uchun zaruriy chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini yaratadi. Biz o‘rganayotgan bitiruv malakaviy ish mavzusi tibbiy sug‘urtaga bag‘ishlangani uchun biz uni tashkil qiluvchi shaxsiy sug‘urta tarmog‘ini tahlil qilamiz. Demak, shaxsiy sug‘urta bo‘yicha sug‘urta mukofotlari 2013 yil yakunlariga ko‘ra, jami sug‘urta mukofotlarining 7.4 %ini tashkil etgan, bu boshqa sug‘urta turlari bo‘yicha kelib tushgan mukofotlarga qaraganda ancha past ko‘rsatkich ekanligiga qaramasdan o‘tgan 2012 yilga nisbatan birmuncha o‘sgan. Chet mamlakatlar tajribasining ko‘rsatishicha, shaxsiy sug‘urta jami sug‘urta mukofotlarining 50 %ini tashkil etadi, chunki insonlar o‘z hayoti, sog‘ligi va mehnatga layoqatligini muhofaza qilishni birinchi o‘ringa qo‘yadilar va u uchun mablag‘ni ayamaydilar. O‘zbekistonda ham shaxsiy sug‘urta turlari bo‘yicha sug‘urtalanish uchun kompaniyalar tomonidan past stavkalar qo‘llanadi va bu mijozlarni jalb etish uchun imkoniyatlarni yaratadi.

¹ Diagramma Biznes Vestnik Vostoka gazetasining 05.02.2014 sanadagi 16-soni ma’lumotlari asosida tuzilgan

O‘zbekiston sug‘urta bozorida faoliyat yuritayotgan sug‘urta brokerlari ro‘yxati (01.04.2014 holatiga) ¹

№	Kompaniya nomlari	Huquqiy tashkiliy shakl
1	GrECo JLT	Mas'uliyati cheklangan jamiyat
2	«TAT-REINSURE BROK»	Mas'uliyati cheklangan jamiyat
3	«SERIOUS ASPECT IN INSURANCE»	Mas'uliyati cheklangan jamiyat
4	«INSURANCE BROKER CONSULTING»	Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Sug‘urta bozori professional ishtirokchilari tarkibiga sug‘urta brokerini ham kiritish mumkin. Sug‘urta qildiruvchining nomidan va topshirig‘iga binoan sug‘urta shartnomasi tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs sug‘urta brokeri hisoblanadi. Hozirgi O‘zbekistonda sug‘urta brokerlarining roli deyarli yo‘q. Sug‘urta xizmatlarining aksariyati ularning ishtirokisiz amalga oshirilmoqda. Chet mamlakatlar sug‘urta bozorining muhim tarkibiy qismlaridan biri bu - sug‘urta brokerlaridir. Brokerlar sug‘urta agentlaridan farqli o‘laroq, bir tomondan, sug‘urtalovchining, ikkinchi tomondan esa sug‘urtalanuvchining manfaatlarini himoya qiladi. AQSH va Buyuk Britaniyada sug‘urta brokerlari instituti nihoyatda taraqqiy etgan. Sug‘urta kompaniyalari o‘rtasida o‘zaro yoki ixtiososlashgan qayta sug‘urta kompaniyalari o‘rtasida qayta sug‘urtalash xizmatlarini ko‘rsatishda vositachilik rolini bajaruvchi qayta sug‘urtalash brokerlari faoliyat yuritishi mumkin. O‘z nomidan va qayta sug‘urta qilish shartnomasi bo‘yicha sug‘urta qildiruvchi tariqasida ishtirok etuvchi sug‘urtalovchining topshirig‘iga binoan qayta sug‘urta qilish shartnomasi tuzilishini va ijro etilishini tashkil qilish bo‘yicha faoliyat yurituvchi yuridik shaxs qayta sug‘urta brokeri hisoblanadi.

¹ Jadval www.UzReport.com sayti ma’lumotlari asosida tayyorlangan

**O‘zbekiston sug‘urta bozorida faoliyat yuritayotgan sug‘urta
assistanslari ro‘yxati¹**

№	Kompaniya nomlari	Huquqiy tashkiliy shakl
1	Bovar Service	Mas'uliyati cheklangan jamiyat
2	Global Assist	Mas'uliyati cheklangan jamiyat
3	Insurance Assist Group	Mas'uliyati cheklangan jamiyat
4	Intertich	Mas'uliyati cheklangan jamiyat
5	O'zbekinvest Assistans	Mas'uliyati cheklangan jamiyat

O‘zbekiston sug‘urta bozorida sug‘urtalanuvchilar tomonidan ko‘rilgan zararlarning o‘rnini qoplashda assistans kompaniyalarining ahamiyati katta. Ayniqsa, tibbiy sug‘urta, kasalliklardan sug‘urtalash, avtotransport sug‘urtasi, transport vositalari egalarining uchinchi shaxslar oldidagi fuqarolik javobgarligi majburiy sug‘urtasi, davlat majburiy sug‘urtasi kabi sug‘urta turlarini amalga oshiruvchi sug‘urta tashkilotlari assistans kompaniyalar bilan hamkorlik qiladilar, bu o‘z navbatida sug‘urtalanuvchilarning da‘volari qisqa vaqt ichida va sifatli qondirilishini ta‘minlaydi. 2013 yilning 9 oylik yakunlariga ko‘ra, O‘zbekistonda 5 ta assistans kompaniyasi mas‘uliyati cheklangan jamiyat shaklida faoliyat yuritmoqda.

**O‘zbekiston sug‘urta bozorida faoliyat yuritayotgan sug‘urta
aktuariylari ro‘yxati²**

№	Kompaniya nomlari	Huquqiy tashkiliy shakl
1	Actuarial Advisers	Mas'uliyati cheklangan jamiyat
2	Actuarial Service Bureau	Mas'uliyati cheklangan jamiyat

¹ Jadval www.UzReport.com sayti ma‘lumotlari asosida tayyorlangan

² Jadval www.UzReport.com sayti ma‘lumotlari asosida tayyorlangan

Sugʻurta bozorining professional ishtirokchilar safiga aktuariylar ham kiradi. 2007 yil 15 sentyabrda matbuotda eʼlon qilingan “Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuniga qoʻshimcha va oʻzgartishlar kiritish toʻgʻrisida” Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining 9- 4- moddasida “Aktuariy quyidagilarni oʻz ichiga oladigan aktuar xizmatlari koʻrsatuvchi yuridik yoki jismoniy shaxsdir:

- sugʻurta voqeasi yuz berishining matematik jihatdan ehtimolligi hisob-kitobini amalga oshirish, ham alohida tavakkalchilik guruhlarida, ham umuman sugʻurta majmui boʻyicha zarar yetkazilishining takroriyligini va ularning oqibatlari ogʻirligi darajasini belgilash;

- sugʻurtalovchining (qayta sugʻurtalovchining) zarur sugʻurta zahiralari va fondlarini matematik jihatdan asoslash hamda hisob-kitob qilish, ularni shakllantirish usullarini ishlab chiqish;

- sugʻurtalovchining investitsiyalar sifatida toʻplangan badallardan foydalanishida kapital qoʻyilma normasi va netto-stavka miqdori oʻrtasidagi bogʻliqlikni tarif stavkalarini investitsiya daromadi summasiga kamaytirishga koʻmaklashadigan tarzda aniqlash;

- sugʻurta jarayonini tashkil etish uchun zarur xarajatlarni asoslash va sugʻurta xizmatlari tannarxini hisob-kitob qilish;

- sugʻurtaning (qayta sugʻurta qilishning) har bir turi boʻyicha tarif stavkalarini sugʻurtalovchilar uchun ularni oʻtkazishning uzoq muddatli va qisqa muddatli xususiyatini hisobga olgan holda belgilash;

- sugʻurtalovchining (qayta sugʻurtalovchining) investitsiya faoliyati natijalarini aktuar hisob-kitoblardan foydalangan holda baholash;

- sugʻurtalovchining (qayta sugʻurtalovchining) daromadlarini sugʻurtaning (qayta sugʻurta qilishning) har xil turlari boʻyicha rejalashtirish”¹ kabi vazifalarni bajarishi qayd etib oʻtilgan.

8-jadval

^{1 1} “Сугурта фаолияти тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Қонунига қўшимча ва ўзгатишлар киритиш тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Қонуни. - Халқ сўзи, 2007 йил 15 сентябрь.

**O‘zbekiston sug‘urta bozorida faoliyat yuritayotgan sug‘urta
adjasterlari ro‘yxati¹**

№	Kompaniya nomlari	Huquqiy tashkiliy shakl
1	ASCON SERVICE	Mas'uliyati cheklangan jamiyat
2	Bovar Service	Mas'uliyati cheklangan jamiyat
3	Claim Adjusters & Surveyor's Services / CASS	Mas'uliyati cheklangan jamiyat
4	LABB	Mas'uliyati cheklangan jamiyat

O‘zbekistonda sug‘urta bozorining barqaror rivojlanishi uning ishtirokchilari tarkibini yanada kengayishiga asos yaratmoqda. Bunga misol tariqasida sug‘urta bozorida adjaster, syurveyer, akturiy va assistans kabi atamarning kirib kelganligini keltirish mumkin. 2007 yil 15 sentyabrda matbuotda e‘lon qilingan “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinishi yuqorida nomlari zikr etilgan sug‘urta bozori yangi ishtirokchilarining huquqiy maqomini mustahkamlab berdi. Mazkur qonunning 9-2-moddasida adjasterga quyidagicha ta’rif berilgan: “Adjaster sug‘urtalovchining (sug‘urta qildiruvchining) topshirig‘i bo‘yicha quyidagi xizmatlarni ko‘rsatuvchi, o‘z shtatida tegishli mutaxassislarga ega bo‘lgan yuridik shaxs yoki professional bilim va malakaga ega bo‘lgan jismoniy shaxsdir:

- sug‘urta hodisasi yuz berganidan keyin sug‘urta ob’ektini ko‘zdan kechirish va tekshirish;
- sug‘urta hodisasi faktlarini va tavakkalchilik holatlarini tahlil qilish;
- sug‘urta ob’ektining shikastlanish sabablarini va sug‘urta hodisasi mavjudligini aniqlash;
- sug‘urta hodisasi mavjud bo‘lgan taqdirda - sug‘urta hodisasi oqibatida vujudga kelgan shikastlanish darajasi va zarar miqdorini belgilash;

¹ Jadval www.UzReport.com sayti ma’lumotlari asosida tayyorlangan

- to'lanishi kerak bo'lgan sug'urta to'voni summasini aniqlash;
- sug'urtalovchi uchun sug'urta hodisasi bo'yicha xulosa tuzish"¹.

Adjaster o'z faoliyatini sug'urtalovchi (sug'urta qildiruvchi) bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiradi. Adjaster: sug'urtalovchi sifatida sug'urta va qayta sug'urta qilish operatsiyalari o'tkazishga; sug'urta bo'yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirishga; sug'urtalovchilarning ustav fondlarida ishtirok etishga haqli emas. Adjaster xizmati ko'rsatish natijalari hisobot tarzida rasmiylashtirilib, undan sug'urtalovchi zararlarning o'rnini qoplash va nizolarni hal qilish chog'ida foydalanishi mumkin. Adjasterning hisobotida ko'rsatilgan xulosalar mustaqil sug'urta ekspertizasi jarayonida qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Sug'urta syurveyeri ham sug'urta bozorida muhim mavqega ega. Ammo, O'zbekistonda syurveyer xizmati yetarli darajada rivojlanmagan. Ammo, shunday bo'lishiga qaramasdan syurveyerlarning faoliyat qonuniy jihatdan tartibga solindi. Sug'urta bozorining professional ishtirokchilari safiga aktuariylar ham kiradi. 2007 yil 15 sentyabrda matbuotda e'lon qilingan "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonunining 9- 6- moddasida sug'urta syurveyeri haqida quyidagi normalar mavjud²: Sug'urta syurveyeri quyidagilar bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi, o'z shtatida tegishli mutaxassislariga ega bo'lgan yuridik shaxs yoki professional bilim va malakaga ega bo'lgan jismoniy shaxsdir:

- sug'urta shartnomasi tuzilguniga qadar sug'urta ob'ektini ko'zdan kechirish va tekshirish;
- sug'urta shartnomasi tuzilguniga qadar barcha faktlarni va tavakkalchilik holatlarini tahlil qilish, tavakkalchilik darajasini aniqlash;
- tekshirilayotgan sug'urta ob'ekti bo'yicha xulosa tuzish.

¹ "Sug'urta faoliyati to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuniga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni. - Xalq so'zi, 2007 yil 15 sentabr

² "Sug'urta faoliyati to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuniga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni. - Xalq so'zi, 2007 yil 15 sentabr

2013 yil davomida “O‘zbekinvest” EIMSK tomonidan qayta sug‘urtani amalga oshirish bo‘yicha ma‘lumotlar tahlili¹

Ko‘rsatkichlar	Ming so‘m	Ming AQSH dollari	Jami ming so‘mda	O‘tgan yilga nibatan o‘zgarishi %da
Qayta sug‘urtaga qabul qilingan	4 488 039,36	412,79	5 345 207,68	92,1%
Qayta sug‘urtaga berilgan	2 228 461,95	6 691,99	16 463 990,19	78,0%
Olingan vositachilik haqi	365 189,26	201,51	784 502,58	93,3%
To‘langan sug‘urta qoplamasi	8 893 692,34	8 629,28	26 792 466,98	420,5%

Jadval ma‘lumotlarining guvohlik berishicha, “O‘zbekinvest” sug‘urta kompaniyasida qayta sug‘urta operatsiyalari samarali tarzda amalga oshirilgan bo‘lib, qayta sug‘urtaga qabul qilingan risklar qayta sug‘urtaga berilgan risklarga qaraganda ikki baravar ko‘p. Bu kompaniyaning qayta sug‘urta munosabatlaridagi faol ishtiroki, shuningdek moliyaviy jihatdan barqarorligini anglatadi. Bundan tashqari, kompaniya o‘rtadagi vositachilik haqidan ham daromad ko‘radi, bu daromad olishning qonuniy usullaridan hisoblanadi va uning to‘lov qobiliyatini belgilaydi. Xulosa qilib aytganda, “O‘zbekinvest” EIMSK milliy sug‘urta bozorining faol ishtirokchisi hisoblanadi, chunki sug‘urta vositalarining barchasi bilan, shuningdek assistans, adjasterlar bilan hamkorlikda sug‘urtalanuvchilarning, shuningdek potensial sug‘urtalanuvchilarning manfaatlarini himoya qilib kelmoqda va sohaga oid qiziqishlarni shakllantirmoqda. Umuman olganda, sug‘urta bozori infratuzilmasi sub’ektlarining soni ortishi va shunga mos ravishda faoliyat ko‘lamining kengayishi soha taraqqiyotini belgilaydi, xuddi shu maqsadlarni ko‘zlagan holda bugungi kunda sug‘urta qonunchiligi bo‘yicha ularga keng imkoniyatlar yaratish masalalari ko‘rib chiqilmoqda.

¹ Jadval O‘zbekinvest sug‘urta kompaniyai ma‘lumotlari asosida tayyorlandi

III bob. Sug'urta bozori infratuzilmasi sub'ektlari va ular faoliyatini rivojlantirish muammolari

3.1. Mamlakat sug'urta bozori infratuzilmasini tashkil etish bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasi

Rivojlangan xorijiy davlatlarda sug'urta bozori yuksak rivojlangan. Aholi va firma hamda kompaniyalar sug'urta tizimiga hurmat va ishonch bilan munosabatda bo'ladilar. Bu davlatlarda sug'urta, nafaqat mamlakat poytaxtlarida, balki chekka mintaqalarida ham yetarli darajada taraqqiy etgan. Ayniqsa, xorijiy davlatlarda mintaqaviy sug'urta xizmatlari bozorini tashkil etilishi o'ziga xos xususiyatga ega. Buni biz AQSH misolida tahlil qilishga harakat qilamiz.

2012 yil statistik ma'lumotlariga ko'ra, Amerika Qo'shma Shtatlarida hosil qilingan yalpi ichki mahsulotning 9,4 foizini sug'urta mukofotlari tashkil etgan. Bu ko'rsatkich Fransiya, Kanada, Italiya kabi taraqqiy etgan mamlakatlarning tegishli ko'rsatkichidan sezilarli darajada yuqoridir. Amerika diyorida sug'urta ishini nechog'li rivojlanganligini nafaqat yuqorida qayd etilgan makroiqtisodiy ko'rsatkich, balki boshqa ko'rsatkich orqali ham bilib olishimiz mumkin. Jumladan, 2012 yilda yig'ib olingan sug'urta mukofotlarini aholi jon boshiga taqsimlaganda, bir AQSH fuqarosi o'zini va o'ziga qarashli mol-mulklarni sug'urtalashga bir yilda 3790,2 dollar sarflagan. Yuqorida ko'rsatilgan mablag'ning 2072,1 dollari umumiy sug'urta, 1718,1 dollari esa hayotni sug'urtasiga to'g'ri keladi.¹

XX asrning so'nggi o'n yili mobaynida sug'urta faoliyati Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur va Germaniya kabi davlatlarda jadal rivojlanib borishiga qaramasdan, Amerika sug'urta kompaniyalari jahonda o'zining yetakchiilik mavqeini yo'qotgan emas. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga qaramasdan, 2012 yilda Amerika Qo'shma Shtatlari Kanada bilan birgalikda yer sharida yig'ib olinadigan sug'urta mukofotlarining qariyb 36,2 foizini

¹ www.sigma.com.

to'pladilar. Ko'rinib turibdiki, bu juda yuqori ko'rsatkich va bu mamlakatlarda sug'urta ishi kundalik hayotning ajralmas elementi ekanligidan darak beradi.

2012 yil ma'lumotlariga murojaat qiladigan bo'lsak, Amerikada 6000 mingga yaqin sug'urta kompaniyalari mavjud bo'lib, ularda 2,6 mln.ga yaqin xodimlar ishlashyapti. 2012 yillar boshida amerikalik fuqarolar umumiy summasi 6,6 trl. dollardan ortiq bo'lgan 450 mln. sug'urta polisiga ega bo'lishgan¹.

AQSHda sug'urta biznesi rivojlanishining eng muhim yo'nalishlaridan biri, uning yanada baynalminallashuvidir. Amerikalik ekspertlarning tahminlariga ko'ra, bu jarayon kelgusi 10 yillikda yanada kuchayadi. Buni biz O'zbekiston misolida ham ko'rishimiz mumkin. 1991 yilda O'zbekiston o'z mustakilligini qo'lga kiritishi va bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tishi munosabati bilan, O'zbekistonga rivojlangan davlatlarning, shu jumladan Amerika Qo'shma Shtatlarining qiziqishi oshdi. 1994 yilda mamlakatimizda Amerikaning eng yirik sug'urta kompaniyasi bo'lmish - "Ameriken Interneshnl Group" sug'urta korporatsiyasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki bilan hamkorlikda "UZAIG" o'zbek-amerika sug'urta kompaniyasini tashkil etdi. Bu qo'shma sug'urta kompaniyaning ustav kapitalida amerikalik kompaniyaning ulushi 51 foizni, ya'ni 1,1 mln.doll.ni tashkil etadi. Ammo, xalqaro bozorlarda Amerika sug'urta kompaniyalari jiddiy raqobatga duch kelishmoqda. Amerika sug'urta kompaniyalarining xalqaro bozorlarda faol faoliyat ko'rsatishining asosiy sabablaridan biri shundaki, Amerika savdo-sanoat monopoliyalari, transmilliy korporatsiyalari tobora jahon bozorini ishg'ol qilmoqda. Tabiiyki, bu monopoliya va korporatsiyalar chet mamlakatlar iqtisodiyotidagi o'z ishtiroklarini tarkibiy tuzilmalaridan biri bo'lgan sug'urta kompaniyalarisiz amalga oshirishmaydi.

Barcha davlatlarda bo'lgani kabi Amerika Qo'shma Shtatlarida ham sug'urta kompaniyalari faoliyati ustidan davlat nazorati mavjud. Bu bejiz emas, albatta. Negaki, qaysi davlatda va iqtisodiy taraqqiyot qay darajada rivojlanmasin,

¹ www.sigma.com.

baribir, sug'urta kompaniyalari millionlab mijozlari oldida olgan majburiyatlarini halol va vijdonan bajarishlari uchun mas'uliyatga egadirlar.

Shunisi diqqatga sazovorki, AQSHda sug'urta kompaniyalari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish markazlashgan shaklda yagona Federal boshqaruv organi tomonidan nazorat qilinmasdan, balki shtat darajasida nazorat qilinadi. Har bir shtatda sug'urta operatsiyalarini nazorat qilish bo'yicha maxsus bo'limlar mavjud bo'lib, ular superintendant yoki komissarlar tomonidan boshqariladi. Bu shaxslar shtat gubernatorlari tomonidan tayinlanadi va odatda, rahbarlik muddati gubernatorlar saylov muddatiga teng. Ayrim shtatlarda sug'urta operatsiyalari hajmining nihoyatda kattaligi maxsus bo'limda yetarli miqdorda xodimlar ishlashini talab etadi. Ammo, shunday bo'lishiga qaramasdan bu nazorat bo'limlari doimo malakali mutaxassislar va zarur darajadagi mablag'lar yetishmasligidan aziyat chekishadi. Shunisi ajablanarliki, har bir shtatda sug'urta kompaniyalarini nazorat qilish va ro'yxatdan o'tkazish tartibi bir-biridan farq qiladi.

Sug'urta operatsiyalarini nazorat qilish bo'limining asosiy funksiyasi mazkur shtatda ro'yxatdan o'tgan barcha sug'urta kompaniyalarining to'lov qobiliyati va amalga oshirilgan sug'urta operatsiyalari ustidan muntazam nazorat o'rnatishdan iborat. Faqat bugina emas. Sug'urta operatsiyalarini nazorat qilish maxsus bo'limi, amalda har bir sug'urtalovchining moliyaviy ahvolini kuzatib boradi va yillik hisobotlarni tahlil etadi. AQSHdagi har bir shtat o'z hududida faoliyat ko'rsatayotgan hamma sug'urta kompaniyalari uchun muayyan talablar va cheklovlar qo'yishda mutlaqo erkindir. Har bir shtatda sug'urta faoliyatini tartibga solish yuzasidan alohida qonun-qoidalarni mavjudligi bu yo'nalishda ma'lum bir qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, Arkanzas shtatida ro'yxatdan o'tgan sug'urta kompaniyasi o'z polisini Texas shtatida sotsa, demak u mazkur shtatning sug'urta faoliyatini amalga oshirishga doir qonun hujjatlari talablariga javob berishi zarur. Bu esa, o'z-o'zidan ortiqcha rasmiyatchilikni va hujjatlarni to'ldirishni vujudga keltiradi. Mana shunga o'xshash masalalarni hal etish va sug'urta sohasini Federal darajada o'zaro muvofiqlashtirib borish

maqsadida, barcha shtatlarning sug'urta operatsiyalarini nazorat qilish maxsus bo'limlari bo'lim boshliqlarining ko'ngilli Milliy assotsiatsiyasiga birlashdilar. Assotsiatsiyaning majlislari bir yilda 2-4 bo'lib o'tsada, afsuski, uning qabul qilgan qarorlari shtatdagi qonun chiqaruvchi organlar uchun tavsiyaviy xarakterga ega.

Ajablanarli tomoni shundaki, sug'urta kompaniyalarining o'zi emas, balki ular faoliyatining ayrim tomonlari Federal hukumat tomonidan nazorat qilinadi. Masalan, sug'urta kompaniyalarining qimmatli qog'ozlarni oldi-sotdisi bilan bog'liq operatsiyalari qimmatli qog'ozlarni savdosi bo'yicha Komissiya o'rnatgan talablarga javob berishi zarur.

Birinchi navbatda, sug'urtalanuvchini manfaatini himoya qiladi. Yevropada amalda bo'lgan tartibdan farqli o'laroq, Amerika Qo'shma Shtatlarida sug'urta kompaniyasi rahbarlari uchun ularning malakasi, ish tajribasiga talablar qo'yilmaydi. Aksincha, amalga oshirilgan sug'urta operatsiyalari bo'yicha qattiq hisobot talab etiladi.

Har bir shtatda depozit va kafolat fondlari mavjudki, bu fondlar sug'urta kompaniyalari bankrot deb e'lon qilingan taqdirda, olingan majburiyatlarni bajarish uchun ishlatiladi. Kafolat fondiga ajratilayotgan mablag'lar miqdori sug'urta kompaniyasining aktiviga nisbatan 2-5 foizni tashkil etadi. Mobodo, sug'urta kompaniyasi bankrot deb e'lon qilinsa, bu holda sug'urta nazorati qanday chora-tadbirlarni amalga oshiradi degan o'rinli savol tug'ilishi mumkin. Dastlab, shtatdagi sug'urta operatsiyalarini nazorat qiluvchi maxsus bo'lim, bankrot deb e'lon qilingan kompaniyaning jami qarzlarini baholaydi. Shundan so'ng, bankrot bo'lgan kompaniyaning mijozlarini qabul qilib olgan boshqa kompaniya kafolat fondidan tegishli mablag'lar oladi. Ayrim shtatlarda, sug'urta kompaniyalarining shtat byudjetiga to'laydigan ajratmalari miqdori kafolat fondidan olinadigan mablag'lar summasiga kamayishi ham mumkin.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Amerika Qo'shma Shtatlarida sug'urta faoliyatini davlat tomonidan nazorat etish o'ziga xos xarakterga ega. Har bir shtatda sug'urta faoliyatini nazorat qilishga qaratilgan qonunchilik

hujjatlari aytarli bir-biridan farq qiladi. Ammo, har qanday sharoitda sug'urta operatsiyalarini nazorat qiluvchi maxsus bo'limlarning asosiy vazifasi sug'urtalanuvchilarning to'la manfaatini himoya qilishga qaratilgan.

3.2. O'zbekiston mintaqalarida sug'urta bozori ifratuzilmasini rivojlantirish muammolari va ularni hal etish yo'llari

Sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri raqobat muhitini shakllantirish va rivojlantirish hisoblanadi. Sug'urta bozorining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish bilan shug'ullanuvchi aksariyat ekspertlar va tahlilchilarning fikriga ko'ra, mamlakatimiz mintaqalarida raqobat muhiti sust ko'rinishga ega. Eng achinarlisi, aksariyat qishloq tumanlarida sug'urta xizmatlarini ko'rsatish hamon yagona sug'urtalovchi- "O'zagrosug'urta" davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasining tuman bo'limlari tomonidan amalga oshirilib kelinmoqda. Haqiqatda, unga raqobatda bo'ladigan tuman bo'limlari aksariyat sug'urta tashkilotlari tomonidan joylarda tashkil etilmagan. Ayni chog'da bu vaziyat to'liq barcha viloyatlarga tegishlidir.

Demak, bayon etilganlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, O'zbekiston Respublikasining viloyat markazlarida sug'urta xizmatlari bozori biroz rivojlangan bo'lib, chekka qishloq tumanlarida sug'urtalovchilarning sug'urta xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan bo'linmalari yetarli darajada tashkil etilmagan. Bu o'z navbatida mintaqaviy sug'urta xizmatlari bozorini bir tekisda rivojlanishiga xalaqit bermoqda.

Bitiruv malakaviy ishning oldingi boblarida amal oshirilgan ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston Respublikasining birorta hududida yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan sug'urta tashkilotlari faoliyat ko'rsatmaydi. Mavjud sug'urta tashkilotlarining barchasi poytaxtda - Toshkent shahrida ro'yxatga olingan va ular mamlakat mintaqalarida sug'urta xizmatlarini tegishli filial va bo'linmalari orqali ko'rsatadilar. Nazarimizda, mintaqaviy sug'urta xizmatlarini bozorini yanada rivojlantirish maqsadida joylarda mustaqil sug'urta tashkilotlarini tuzish maqsadga muvofiq. Buning uchun tijorat banklari,

kredit uyushmalarining ustav fondiga belgilanganidek, tabaqalashtirilgan ustav fondining eng kam miqdorlarini o'rnatish maqsadga muvofiq. Ya'ni, Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatadigan sug'urtalovchilar uchun alohida, mintaqalarda faoliyat ko'rsatadigan sug'urtalovchilar uchun alohida ustav fondining eng kam miqdorlarini belgilash lozim. Hozirgi kunda respublikamizning umumiy sug'urta tarmog'ida faoliyat ko'rsatuvchi sug'urtalovchilar uchun ustav fondining eng kam miqdori 1.125 mln. yevro ekvivalentidagi summada belgilangan. Biz bu miqdorni poytaxtda tashkil etiladigan sug'urtalovchilar uchun tatbiq etgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlarda tashkil etiladigan sug'urtalovchilar uchun uning 50 foizi miqdorida, ya'ni 562,5 ming yevro atrofida belgilashni taklif etamiz. Nazarimizda, viloyatlarda tashkil etiladigan sug'urta tashkilotlari uchun bunday tartibning joriy etilishi mintaqaviy sug'urta xizmatlari bozori rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirishdagi asosiy omillar qatoriga sug'urta polislarini sotish kanallarini kengaytirishni hamda sug'urta polislarini sotishning zamonaviy texnologiyalarini qo'llashni kiritish mumkin.

Sug'urta agenti mijoz bilan o'zaro foydali muloqot o'rnatish uchun quyidagi oltita muhim omilni e'tibordan chetda qoldirmasligi lozim:

- o'zaro hayrixohlik. Bu sifat yaxshi ish munosabatlarini o'rnatish uchun muhim shart hisoblanadi. Muruvvatlilik, manfaatlarning umumiyligi hayrixohlikni oshiradi.

- tomonlarning bir-biriga hurmati. Savdo munosabatlari mustahkam bo'lishining yana bir muhim sharti bu hamkorlarning bir-biriga bo'lgan hurmatidir.

- tomonlarning bir-biriga o'zaro ishonchi. Sotish texnologiyasining muvaffaqiyati hamkorlarining bir-biriga ishonchi o'zaro ochiqchilikda, vijdonda, hulqining «tiniq»ligida, tartibliligida va ishonchliligida bilinadi.

- o'zaro tirishqoqlik. Sug'urta mahsulotlarini sotuvchi sifatida agent hamma kuch-g'ayratini mijoz bilan yaxshi muomalada bo'lishga qaratishi lozim.

Darhaqiqat, mijozni qiziqitirmay turib, agent umumiy qo'yilgan maqsad yo'lida hech qanday o'zgarish qilolmaydi. Ta'bir joiz bo'lsa, sug'urta agenti mijozga do'st bo'lishi, buning ustiga uning muammolarini echishga yordam berishi, uning har qanday istaklarini bajarishga harakat qilishi kerak. Vazmin va bosiq bo'lish hamda kamgaplik savdo munosabatlari muvaffaqiyatining asosini tashkil etadi. Shuningdek, sug'urta agentining mijoz bilan suhbat olib borish mahoratini, bir-birlarining ish faoliyatiga o'zaro qiziqishlarini moslashuvchanlik, oliyanoblilik va mustaqil bo'lish kabi fazilatlarni sotuv jarayonida ijobiy natijaga erishishning zarur shartlaridan biri sifatida ta'kidlash joiz.

- sotuvchi va mijoz o'rtasidagi munosabatlarning jadalligi. Shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, o'zaro munosabatlar ikkala tomon bir-biri bilan doimiy muloqotda bo'lib turgandagina yaxshilanadi. Agar sug'urta mahsulotlarini sotuvchi agent mijozlar bilan muntazam yaxshi va mustahkam aloqada bo'lib turish imkoniyatini topa olmasa, u holda hamma e'tiborni va harakatlarni katta daromad keltiruvchi mijozlarga qaratishi kerak. Mutaxassislarning ma'lum qilishicha, sug'urta agenti bir paytning o'zida beshtadan ortiq bo'lmagan mijozlar bilan haqiqatda yaxshi va mustahkam aloqada bo'la oladi.

- puxta bilimli bo'lish. Sug'urta agenti o'z kompaniyasini mijozga tanishtirish jarayonida unga kompaniyaning erishgan yutuqlari va ijobiy tomonlari haqida so'z ochadi. Agarda agent o'zini puxta bilim egasi qilib ko'rsata olmasa, mijoz bilan bo'ladigan hamma yaxshi munosabatlari izdan chiqadi.

Shunday qilib, sotuvchi va mijoz o'rtasida qaror topgan o'zaro ishonch, mijoz haqidagi muammolar to'g'risidagi axborotga ega bo'lish, bu muammolarning to'g'ri yechimini ko'rsatish, oxir-oqibatda sug'urta mahsuloti sotilishiga sharoit yaratadi.

Xorij tajribasidan ko'rishimiz mumkinki, sug'urtalovchilarda tarifkatsiya tizimining samarali bo'lishini ta'minlovchi omillardan biri bu tariflarni hisoblash sohasi bo'yicha mukammal malakaga ega mutaxassis(aktuariy)larning

mavjudligi hisoblanadi. Hozirda, mamlakatimizda aktuariylarning faoliyatiga taaluqli qonunchilik shakllantirilmaganligini hisobga olib, O'zbekistonda aktuariylarning faoliyatini sertifikatlash va sug'urtalovchilar tarifikatsiya tizimining aktuariylar tomonidan ishlab chiqilishi bilan bog'liq tartib va qoidalarni qonunchilik asosida kiritish taklif etiladi. Aktuariylarning faoliyatini yo'lga qo'yishda quyidagi yo'nalishlarni hisobga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

Aktuariylarning faoliyati maxsus vakolatli davlat organi tomonidan shahodatlanadi;

sug'urtalovchilar litsenziya olishda taqdim qiladigan hujjatlar tarkibida aktuariy xulosasiga ega bo'lishi shart;

sug'urtalovchilarning tarifikatsiya tizimi aktuariy tomonidan to'g'riligi tasdiqlanishi lozim;

sug'urtalovchilar tarifikatsiya tizimini kamida bir yilda bir marta qayta ko'rib chiqishi shart;

aktuariylar sug'urtalovchilar tomonidan ixtiyoriy yoki qonunchilikda belgilangan tartibda majburiy tarzda jalb etilishi mumkin va boshqalar.

Sug'urtalovchilar tomonidan tarifikatsiya tizimi oqilona ishlab chiqilgandan so'ng sug'urta bozoriga chiqarilayotgan sug'urta xizmatlarining narxlari ushbu tizim asosida shakllantirilishi albatta, sug'urtalovchining yetarli darajadagi to'lov qobiliyatini va barqaror faoliyatini ta'minlashi mumkin. Shu o'rinda, ushbu tarifikatsiya tizimi asosida narxlangan sug'urta xizmatlarini sotish va ularning ko'lamini kengaytirish ham sug'urtalash jarayonini takomillashtirishning keyingi yo'nalishi hisoblanadi.

O'zbekistonda sug'urta bozori bo'yicha aniqlangan shartli o'rtacha sug'urta tarifining 2010-20013 yillarda 0,20 foiz va sug'urta zararliligi darajasining 18,0 foiz atrofida bo'lganligini hisobga olsak, tariflarning bir muncha yuqori belgilanganligini ko'rishimiz mumkin. Bu holat sug'urta bozorida sug'urtalovchilar uchun faoliyatini kengaytirish uchun keng imkoniyatlar mavjudligidan dalolat berib turibdi. Hozirda sug'urta bozorida

sotilayotgan sug'urta xizmatlarining katta qismi umumiy sug'urta sohasiga to'g'ri keladi. Ta'kidlash joizki, sug'urta turlarining xususiyatlaridan kelib chiqib, sug'urta xizmatlarini sotishning turli usullarini qo'llash mumkin. Albatta, sug'urta xizmatlarining sotilishida sug'urtalanuvchilarning to'lov qobiliyati va sug'urta madaniyati ham katta ahamiyatga ega. Shu nuqtai-nazardan sug'urtalovchilar sug'urtalanuvchilarning to'lov qobiliyatiga muvofiq ravishda sug'urta xizmatlarini ishlab chiqishi hamda sug'urta madaniyatini oshirish bo'yicha targ'ibot, tashviqot ishlarini amalga oshirib borishi sug'urta xizmatlarini sotish ko'lamining kengayishini ta'minlovchi omil hisoblanadi.

O'zbekistonda aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi davlat olib borayotgan iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi. Sug'urta ana shu tizimda o'ziga xos o'rinni egallashi uchun bir qator muammolarni hal etish lozim.

Birinchidan, respublika aholisining qariyb 66 foizi qishloq hududlarida istiqomat qilishi sir emas. Qolaversa, mavjud ma'lumotlarga ko'ra, ko'p bolali va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining salmoqli qismi ham aynan shu hududlarga to'g'ri keladi. Qishloqda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining asosiy daromad manbalari, faqat, davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladigan nafaqa va byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan beriladigan pensiyalarga qaratilgan. Bu holat, o'z-o'zidan qishloq joylarda istiqomat qiladigan aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimida sug'urta mexanizmidan samarali foydalanish yo'llarini izlab topishni taqozo qiladi. Bu muammoni hal etish oson ish emas. Chunki, sug'urta har qanday shaklda va usulda amalga oshirilmasin, pulli xizmat bo'lib qolaveradi. Shunday ekan, to'lov qobiliyati past darajada va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini sug'urta himoyasiga qamrab olish uchun, bizning fikrimizcha, quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

To'lov qobiliyati past va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini, ayniqsa, qishloq joylarda istiqomat qiladigan aholini sug'urta qilish uchun ushbu yo'nalishda sug'urta xizmatlarini ko'rsatmoqchi bo'lgan sug'urta tashkilotlariga soliqdan imtiyozlar berishni taklif etamiz. Albatta, bu taklif vaqtinchalik

xarakterga ega bo‘lib, turmush darajasining oshishi barobarida, keyinchalik bu imtiyoz bekor etilishi mumkin.

Ikkinchidan, biz bilamizki, sug‘urtaning barcha turi u yoki bu darajada ijtimoiy himoya bilan uzviy bog‘langan. Gap aholini sug‘urta qilish bilan bog‘liq sug‘urta xizmatlari haqida ketayotir. Aholining ijtimoiy himoyasi bilan bog‘liq sug‘urta xizmat turlariga fuqarolarni kollektiv yoki yakka tartibda baxtsiz hodisalardan sug‘urta qilish, tibbiy sug‘urta, fuqarolarni kasalliklardan sug‘urta qilishni kiritish mumkin. Albatta, respublikamizdagi mavjud sug‘urta kompaniyalarining aytarli barchasi fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug‘urta qilish bilan shug‘ullanadi. Bu chakana sug‘urta xizmati hisoblanadi va har bir shaxsga individual yondashuvni talab etadi. Bir tomondan, sug‘urta xizmatini ko‘rsatishda shaxsning istak-xoxishlarini e‘tiborga olish muhim ahamiyatga ega, ikkinchi tomondan, bunday tartibda ishlash sug‘urta tashkiloti tasarrufida anchagina sug‘urta agentlari tarmog‘i faoliyat ko‘rsatishini talab etadi. Afsuski, O‘zbekiston sug‘urta bozorida agentlik tarmoqlari sonining o‘sishi kuzatilayotgan bo‘lsada, hali-beri bu aholining keng qatlamlarini sug‘urta himoyasiga qamrab olish uchun yetarli darajada emas.

Sug‘urta xizmatlari bozorini rivojlantirishda ushbu xizmat bilan bog‘liq axborotlarning ochiq-oydinligini ta‘minlash, qolaversa, sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy holati, tarif stavkalari, sug‘urta qilish qoidalari kabi ma‘lumotlarni olishda muammolarning bo‘lmasligi muhim rol uynaydi. To‘g‘ri keyingi yillarda sug‘urta bozorining ochiq-oydinligini ta‘minlash, sug‘urta tashkilotlari va ularning operatsiyalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni keng xalq ommasi e‘tiboriga yetkazish borasida jiddiy ijobiy qadamlar tashlandi.

Aholining turli axborot manbalari, xususan, “Internet” global tarmog‘i orqali sug‘urta faoliyatiga oid axborotlar olish imkoniyati kengaydi. 2009 yildan boshlab respublikamizda “Sug‘urta” jurnalining chop etilishi, “UzReport.com” internet portalida O‘zbekiston sug‘urta bozorida sodir bo‘layotgan yangiliklarni muntazam e‘lon qilib borilishi sug‘urta bozorining umumiy holati bilan bog‘liq axborotlarning foydalanuvchilar tomonidan olinishida katta ahamiyatga ega

bo'ldi. Ammo, mamlakatimiz mintaqalarida sug'urta bozori va uning rivojlanishi bilan bog'liq axborotlar yetarli emas. Boz ustiga aksariyat axborotlar rus va chet tillarida mavjud. Bu holat ham mintaqalarda sug'urta faoliyati va bozori to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'proq davlat tilida e'lon qilib borilishini talab etadi. Bunga yana shuni qo'shimcha qilish mumkinki, amaldagi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunga asosan sug'urta tashkilotlari moliya yili yakunlari bo'yicha yillik hisobotlarini ommaviy axborot vositalarida e'lon qilib borishlari lozim. Amalda esa kamdan-kam sug'urta kompaniyalarining moliyaviy hisobotlari bilan matbuot orqali tanishish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Shuni e'tiborga olgan holda sug'urta bozorini davlat tomonidan nazorat qilish va tartibga solish bo'yicha maxsus vakolatli davlat organi – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bu muammoga o'z e'tiborini qaratadi hamda shunday tartib o'rnatadiki, unga ko'ra barcha sug'urtalovchilar vakolatli davlat organi belgilagan shakllarda va tartibda o'z moliyaviy hisobotlarini ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilib boradilar. Bu o'z navbatida mamlakatimiz mintaqalarida aholining sug'urtaga bo'lgan munosabatlari va bilimlarini mustahkamlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa

O‘zbekistonda sug‘urta xizmatlari bozori infratuzilmasi rivojlanishining hozirgi holati va tendensiyalarini o‘rganish hamda tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga keldik.

1. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta xizmatlari bozorida 32 ta sug‘urta tashkiloti va 9,5 mingdan ortiq sug‘urta agentlari faoliyat ko‘rsatmoqda. Mintaqaviy sug‘urta xizmatlari bozorida, ya‘ni aniqroq qilib aytganda Toshkent shahridan tashqari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlarda yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan mustaqil sug‘urta tashkilotlari tashkil etilmagan. Sug‘urta bozori tarkibiga bosh ofisi Toshkent shahrida joylashgan sug‘urta kompaniyalarining filiallari, tuman va shahar bo‘limlari hamda ko‘p sonli sug‘urta polislarini sotish bilan shug‘ullanuvchi agentlar kiradi. Sug‘urta bozorining boshqa sub‘ektlari: sug‘urta syurveyerlari, adjasterlar, akturiylar va sug‘urta assistansi xizmatlari respublika mintaqalarida tashkil etilmagan.

2. Mintaqaviy sug‘urta xizmatlari bozorini rivojlantirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida 2010 yilgacha bo‘lgan davrda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2007 yil 21 mayda qabul qilingan PQ-640-son Qarori alohida o‘rin egallaydi. Buni shu bilan izohlash mumkinki, ushbu qarorga binoan “O‘zbekiston Respublikasida 2007—2010 yillarda xizmatlar ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning yangilangan asosiy parametrlari” tasdiqlandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 17 apreldagi pq-325-son qarorining 7-bandida ko‘zda tutilgan soliq imtiyozlari sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari xizmatlariga ham tatbiq etildi. Ya‘ni sug‘urta bozorining ishtirokchilari – sug‘urta agentlari, akturiylar, adjasterlar va syurveyerlar 2010 yilga qadar foyda va yagona soliq to‘lashdan ozod etildi.

3. So‘nggi yillarda O‘zbekiston sug‘urta bozori bo‘yicha kelib tushgan sug‘urta mukofotlari tarkibida mintaqalarning ulushi o‘sayotganligiga qaramay, hamon mamlakat sug‘urta bozorida Toshkent shahri muhim va salmoqli o‘rin

egallaydi. Bunga asosiy sabab, birinchidan, Toshkent shahrida biznes muhiti, ishlab chiqarish va savdo operatsiyalari, transport va qurilish-montaj ishlari respublikamizning boshqa hududlariga qaraganda kuchli rivojlangan. Ikkinchidan, mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan barcha sug'urta kompaniyalarining bosh ofislari Toshkent shahrida joylashgan. Tabiiyki, bu holat misol uchun, "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi, "O'zbekiston temir yo'llari" davlat aksiyadorlik temir yo'l kompaniyasi kabi yirik mijozlar bilan katta miqdordagi sug'urta shartnomalarini tuzishga asos bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan xulosalarga asoslangan holda sug'urta bozori infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalarni bildiramiz:

1. Sug'urta bozori infratuzilmasi sub'ektlarining sug'urta operatsiyalarida faol ishtirokini ta'minlash zarur. Buning uchun ulardan mijozlar bilan munosabatda samimiy va puxta bilimli bo'lish (agentlar va brokerlar), sug'urta ob'ektlarining qiymati va zararni baholashda tezkorlik, aniqlik bo'lishi (syurveyer va adjasterlar), sug'urta hodisalarining ro'y berish ehtimolligini hisoblashda statistik tahlillar va individual jihatlarni hisobga olish (aktuariylar) talab etiladi.

2. Sug'urta bozori infratuzilmasi sub'ektlarining faoliyatini litsenziyalashni taklif etamiz. Sug'urta bozori sub'ektlarining barchasini o'z sohasi bo'yicha puxta bilimga ega deyish qiyin. Shu maqsadda ularni maxsus o'quv kurslarida o'qitish, bu o'qitish kurslarini Assotsiatsiyada tashkil etgan holda ularni o'qitib, so'ng faoliyatni boshlash uchun attestat yoki litsenziya berish mumkin va buni amalga oshirishni Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi o'z nazoratiga olishini taklif etamiz.

3. Aktuar hisob-kitoblar sug'urta tizimining ishonchliligini va moliyaviy barqarorligini oshirishdagi muhim element bo'lganligi sababli sug'urta bozorida tariflarni hisoblashga asos bo'ladigan statistik ma'lumotlarning markazlashtirilgan bazasini yaratish maqsadga muvofiq bo'lar edi, chunki

alohida olingan kompaniyaning imkoniyatlari bunday vazifani amalga oshirishga yetarli bo'lmashligi mumkin. Shuningdek, aktuariylar tomonidan ob'ekt bo'yicha sug'urta hodisalari ro'y berish ehtimolligini hisoblashda xuddi shu tur bo'yicha oldingi davrlarda sug'urta kompaniyalarining zararlilik darajasining holatini ham inobatga olish zarur, agar zararlilik darajasi past bo'lsa, tarif stavkalarini ham shunga mos holda pasaytirish zarur. Bu albatta potensial mijozlarda qiziqish uyg'otishi tabiiy.

4. Mijozlar tomonidan ko'rilgan zararlarni bartaraf etishda xizmat ko'rsatish, ya'ni assistans xizmatlaridan keng foydalanishni taklif etamiz, har bir sug'urtalovchi o'z tarkibida assistans kompaniyalariga ega bo'lishi ("O'zbekinvest" EIMSK kabi) maqsadga muvofiq. Shuningdek, tibbiy va texnik servislar bilan cheklanib qolmay, assistans kompaniyalarining xizmatlar ko'lamini kengaytirish zarur, misol uchun ta'mirlash ishlari bo'yicha, asbob-uskunalarni tuzatish bo'yicha ustaxonalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish.

5. Sug'urta bozori qatnashchilarining ham moliyaviy barqarorligini, ham mehnat unumdorligini oshirish maqsadida sug'urta in vraturuzilmasida sug'urta PULini tashkil etish lozim. Bunda yirik hajmdagi majburiyatlar yuzasidan sug'urtalovchilarda muammolar bo'lmaydi. Bu usul qayta sug'urtaga qaraganda samaraliroq, chunki qayta sug'urtada qayta sug'urtalovchi birlamchi sug'urtalovchiga vositachilik haqini to'lashi kerak, sug'urta pulida esa mukofotlar biryo'la taqsimlanadi va bunda qayta sug'urtalovchilar ham ishtirok etishi mumkin.

6. Hayot sug'urtasi va tibbiy sug'urta xizmatlariga bo'lgan aholi ehtiyojlarida o'sish kuzatilmayapti, mavjud sug'urta shartnomalarining asosiy qismi Toshkent shahri hissasiga to'g'ri keladi. Demak, ushbu sug'urta turlarini qishloq aholisiga namoyish qilish va ularda ehtiyoj uyg'otish chora-tadbirlarini amalga oshirish zarur, buning uchun viloyat gazetalari yoki viloyat teledasturlari orqali hayot sug'urtasi va tibbiy sug'urtaga oid shartnoma shartlari, unga oid sug'urta hodisalari va sug'urta summalari to'g'risida tugatilgan shartnomalar misolida ma'lumotlar berish mumkin.

7. Aholining turli axborot manbalari, xususan, “Internet” global tarmog‘i orqali sug‘urta faoliyatiga oid axborotlar olish imkoniyati kengaydi. 2009 yildan boshlab respublikamizda “Sug‘urta” jurnalining chop etilishi, “UzReport.com” internet portalida O‘zbekiston sug‘urta bozorida sodir bo‘layotgan yangiliklarni muntazam e‘lon qilib borilishi sug‘urta bozorining umumiy holati bilan bog‘liq axborotlarning foydalanuvchilar tomonidan olinishida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Ammo, mamlakatimiz mintaqalarida sug‘urta bozori va uning rivojlanishi bilan bog‘liq axborotlar yetarli emas. Boz ustiga aksariyat axborotlar rus va chet tillarida mavjud. Bu holat ham mintaqalarda sug‘urta faoliyati va bozori to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni ko‘proq davlat tilida e‘lon qilib borilishini talab etadi. Bunga yana shuni qo‘shimcha qilish mumkinki, amaldagi “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunga asosan sug‘urta tashkilotlari moliya yili yakunlari bo‘yicha yillik hisobotlarini ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilib borishlari lozim. Amalda esa kamdan-kam sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy hisobotlari bilan matbuot orqali tanishish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Shuni e‘tiborga olgan holda sug‘urta bozorini davlat tomonidan nazorat qilish va tartibga solish bo‘yicha maxsus vakolatli davlat organi – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bu muammoga o‘z e‘tiborini qaratadi hamda shunday tartib o‘rnatadiki, unga ko‘ra barcha sug‘urtalovchilar vakolatli davlat organi belgilagan shakllarda va tartibda o‘z moliyaviy hisobotlarini ommaviy axborot vositalari orqali e‘lon qilib boradilar. Bu o‘z navbatida mamlakatimiz mintaqalarida aholining sug‘urtaga bo‘lgan munosabatlari va bilimlarini mustahkamlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

8. Sug‘urta xizmatlari bozorida mavjud bo‘lgan sug‘urta xizmat turlarining assortimenti va shakllarini kengaytirishni va ularni ommaga tanishtirishda sug‘urta agentlari va brokerlari xizmatlaridan foydalanishni tavsiya qilamiz.

9. Mintaqaviy sug‘urta xizmatlari bozorida faoliyat ko‘rsatayotgan sug‘urta tashkilotlari filiallari va ularning Toshkent shahrida joylashgan bosh ofislari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tizimini qayta ko‘rib chiqishni tavsiya etamiz. Bunga asosiy sabab, bosh kompaniya o‘z filiallarining sug‘urta

xizmatlarini ko'rsatish, ayniqsa sug'urta qoplamalarini to'lash bo'yicha huquqlarini ancha cheklab qo'ygan. Bu borada filiallarga mustaqillik berish, ya'ni o'z hududida sodir bo'lgan sug'urta hodisalari natijasida yetkazilgan zararlarni qoplash masalasini o'zlari hal qilishlarini maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

10. O'zbekiston amaliyotida sug'urta mahsulotlarini sotishda sug'urta agentlari ishtirok etib kelayotganligini e'tirof etgan holda shuni ta'kidlash lozimki, aksariyat sug'urtalovchilar korporativ mijozlar, ya'ni yirik korxonalar va tashkilotlarni sug'urtalashni afzal ko'radilar. Vaholanki, sug'urta polislarini sotish bo'yicha chakana savdo, ya'ni aholi bilan ishlash qoniqarli holatda emas. To'g'ri, aholi bilan ishlash, aholiga yakka tartibda sug'urta polislarini sotish jarayoni ko'p mehnat va vaqt talab etadigan jarayon. Ammo shunday bo'lishiga qaramay, bu boradagi ishlarni jonlantirish, aholi bilan ishlashda sug'urta agentlarining rolini oshirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

11. O'zbekistonda brokerlik faoliyati samarali tashkil etilgan bo'lib, bugungi kunda ularning xizmatidan asosan yuridik shaxslar foydalanmoqda. Jismoniy shaxslar esa ular to'g'risida hatto ma'lumotga ham ega emas. Shuning uchun sug'urta brokerlarining joylashgan manzili, faoliyat turi va qay darajada potensial sug'urtalanuvchilarga xizmat ko'rsata olishi to'g'risidagi aniq va qisqa ma'lumotlarni aholi keng foydalanadigan matbuot nashrlarida va www.UzReport.com saytlarida joylashtirishni taklif etamiz.

12. Sug'urta bozori ishtirokchilariga qo'yiladigan muhim talab – bu uning oydinligidir. Potensial mijoz biron-bir sug'urta xizmatini tanlashdan oldin kompaniyaning ishonchliligi va likvidligi, uning tarixi, to'lovlar darajasi, faoliyatning yo'naltirilganligi va boshqalar to'g'risidagi katta hajmdagi axborotga ega bo'lishi kerak. Bu erda mijoz uchun kompaniyani tanlashda, kompaniyaga ishonchda va keyinchalik u bilan munosabatlarni qurishda aniqlovchi bo'lgan sug'urta kompaniyasi faoliyatining ko'rsatkichlari to'g'risida so'z bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasining qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning asarlari

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 1994.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi - T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 1996y.-496 b.
3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni «Sug'urta faoliyati to'g'risida». T.: 2002 y., 5 aprel. «Xalq so'zi» gazetasi, 2002 yil 28 may.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 31 yanvardagi «Sug'urta bozorini yanada erkinlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-3022-son Farmoni. «Xalq so'zi» gazetasi, 2002 yil 1 fevral.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 286-sonli Qarori. 1998 yil 8 iyul. O'zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunlari, 4-ilova, - T.: 2000.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasini tashkil etish to'g'risida»gi 113-sonli Qarori. 1997 yil 28 fevral. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining Qarorlar to'plami, 1997, 2-son.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 27 noyabrdagi 413-sonli «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 apreldagi «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 618-sonli Qarori. «Bank axborotnomasi» 2007 yil 6 iyun.
9. O'zbekiston Respublikasining «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida»gi Qonuni. – Xalq so'zi, 2008 yil 21 aprel.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21 maydagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida erkinlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. Xalq so'zi, 2008 yil 22 may.
11. O'zbekiston Respublikasining "Ish beruvchilarning fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi Qonuni. – Xalq so'zi, 2009 yil 17 aprel.
12. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: O'zbekiston, 2010.- 67 b.
13. Karimov I. A. Prezidentning 2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risidagi qarori. //Xalq so'zi, 2010 yil 26 noyabr PQ-1438-sonli
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisining Qarori. "2013 yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilgi iqtisodiy dasturning asosiy ustuvor vazifalari to'g'risida", <http://www.lex.uz/news/144>

II. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar

15. Shennaev X.M. Sug'urta agentlari uchun qo'llanma. T. infoCOM.UZ MChJ.-2010 y.
16. Yo'ldoshev M, Tursunov Y. O'zbekiston Respublikasi sug'urta huquqi. Darslik - Toshkent, "Moliya".-2012.
17. Shennaev X.M. O'zbekiston sug'urta bozori, O'quv qo'llanma, - Toshkent, "Iqtisod-Moliya".-2013.
18. Pod.red. V.V.Shaxova, Yu.T.Axvlediani. Straxovanie 3-e izdanie. Uchebnik dlya studentov vuzov. - M.: Yuniti, 2009 g.
19. Arxipov A.P. Anderrayting v straxovanie. Teoreticheskiy kurs i praktikum. Uchebnoe posobie.-M.: Yuniti, 2009g
20. Zaytseva M.A., Boliboka V.D. Straxovanie vo vneshneekonomicheskoy deyatelnosti. Uchebnoe posobie dlya vuzov.-BGEU, 2009g.

21. Prosvetov G.I. Straxovanie: zadachi i resheniya. -M.: Alfa-press, 2009g.
22. Andreev Yu.I. Imushchestvennoe straxovanie. Uchebnoe posobie - M.: Os-89, 2009g.
23. Xeydema Djejms M. Uvlechennyi agent: prakticheskoe posobie dlya straxovix agentov. -M.: Volters-Kluver, 2009g.
24. Yu.T.Axvlediani. Straxovanie vneshneekonomicheskoy deyatel'nosti. Uchebnoe posobie dlya vuzov.- M.: Yuniti, 2010g.
25. Adamchuk N.G. Mejdunarodnaya praktika straxovaniya jizni. Uchebnoe posobie.- M.: ANKIL, 2009 g.
26. Anikin P.V., Rusetskaya E.A. Uchebnoe posobie dlya vuzov.- M.: Finansi i statistika, 2008g.
27. Malkova O.V. Straxovanie v sisteme mejdunarodnix ekonomicheskix otnosheniy. Uchebnoe posobie dlya ekonomicheskix spetsialnostey. - M.: Feniks, 2009g.
28. Kuznetsova I.A. Straxovanie jizni i imushchestva grajdan. Prakticheskoe posobie. - M.: Dashkov i K., 2009.
29. Dyujikov E.F., Spletuxov Yu.A. Straxovanie. Uchebnoe posobie. - M.: Infra-M., 2009g.
30. Ivashenko A.G. Straxovanie. Uchebnoe posobie. - M.: KnoRus, 2009g.
31. Samarov E.K. Straxovaya matematika: prakticheskiy kurs. Uchebnoe posobie. - M.: Alfa, 2009 g.
32. Veselovskiy M.Ya. Straxovoy servis. Uchebnoe posobie dlya studentov vuzov - M.: Alfa, 2009 g.
33. Shixov A.K. Straxovoe pravo (per.). 6-e izdanie. Uchebnoe posobie dlya studentov vuzov - M.: Yurisprudentsiya, 2009 g.
34. Pimenva E.N. Straxovoe pravo. Uchebnoe posobie. - M.: Forum, 2009 g.
35. Igoshin N.A. Straxovoe pravo. Uchebnoe posobie. - M.: Yuniti. 2010 g.
36. Ermasov S.V. Straxovanie. Ucheb'nik. 3–e izdanie, pererab. i dop - M.: Yurayt, 2010g.
37. Xudyakov A.I. Teoriya straxovaniya, M.: Status, 2010 g.

38. Nikulina N.N.. Straxovoy menedjment. Uchebnoe posobie. YuNITI, 2011.

III. Davriy nashrlar, statistik to'plamlari va hisobotlar

39. Baymuratov T.M. O'zbekistonda sug'urta faoliyati va uni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.-T.: 2004.

40. Jo'raev A.S. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning dolzarb muammolari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.-T.: 2005 y.

41. Abduraxmonov I.X. O'zbekistonda javobgarlik sug'urtasining hozirgi holati va rivojlantirish istiqbollari. Iqtisod magistri darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.-T.: 2005.

42. Toshbekov M.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni sug'urtalashni takomillashtirish masalalari. Iqtisod magistri darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.-T.: 2005.

43. Saidov T.M. Mejdunarodnaya praktika meditsinskogo straxovaniya i voprosi ee primeneniya v Uzbekistane. Dissertatsiya na soiskanie stepeni magistra ekonomiki.-T.: 2005 g.

44. Xalmatov M.M. O'zbekistonda qayta sug'urtalash va uni rivojlantirish yo'llari. Iqtisod magistri darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.-T.: 2005.

45. Nurullaev A.S. O'zbekistonda fermer va dexqon xo'jaliklari faoliyatini sug'urtalash. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.-T.: 2007.

46. Shennaev X.M. "Milliy iqtisodiyot o'sishini rag'batlantirishda sug'urtaning roli". "O'zbekiston Respublikasida barqaror iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish mexanizmlari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi. TDIU. 2008 yil 6 aprel.-T.: TDIU, aprel 2008 y.

47. Tezisi i dokladi mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii na temu: «Transformatsiya ekonomicheskix otnosheniy v usloviyax preodoleniya posledstviy finansovo-ekonomicheskogo krizisa», Moskva.2010g.

48. Barkamol avlodning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rnini. Respublika ilmiy amaliy anjumanining tezislar to'plami. Toshkent-2010.
49. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida byudjet-soliq siyosatini takomillashtirish muammolari. Respublika ilmiy amaliy konferentsiya materiallari. Toshkent-2010.
50. Soliq tizimini takomillashtirish yo'nalishlari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasining tezislar to'plami. Toshkent-2011.
51. Mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda soliq tizimining rolini oshirish masalalari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma'ruza tezislar to'plami. Toshkent-2011.
52. "Yosh olimlar va talabalar tadqiqotlarida soliq tizimini isloh qilishning ilmiy asoslari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi. Soliq akademiyasi, 2012 yil 27 aprel
53. "Iqtisodiyot nazariyasi muammolari: talqini va yechimlari" mavzusidagi Respublika Oliy o'quv yurtlararo ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent moliya instituti, 2013 yil 17 may.
54. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida soliqlarning rag'batlantiruvchanlik rolini yanada oshirish yo'llari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to'plami. Toshkent-2014.
55. Biznes-vestnik Vostoka./ 15-16 may, 2013, 1,2,3 betlar
56. Biznes Vestnik Vostoka./ №9 (1922) 27 yanvar 2014 yil
57. Ekonomicheskoe obozrenie.// № 3 (160), 2014, 96-101 betlar

IV. Internet saytlari

- www.minfin.uz
- www.sigma.com.
- www.UzReport.com.